

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
“O'ZBEKISTON TARIXI” KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Tarix fakulteti dekani
dots.S.G'oziyev
“ _____ ” _____ 2011 y.

5140600-tarix yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

**“Z.M.Boburning “Boburnoma” asari O'rta Osiyo xalqlari tarixi va
geografiyasini o'rganishda muhim manba” mavzusida bajargan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Mamirov Bobomurod

Ilmiy rahbar: t.f.n.dots.A.Pardayev

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

t.f.n.dots.A.Pardayev

BMI “O'zbekiston tarixi” yig'ilishi qarori
bilan (Qaror №13 28.05.2011 y) himoyaga tavsiya
etilgan.

Kafedra mudiri:

t.f.n.dots.A.Pardayev

Jizzax – 2011

Mavzu: Z.M.Boburning “Boburnoma” asari O’rta Osiyo xalqlari tarixi va geografiyasini o’rganishda muhim manba

Reja:

Kirish

- a)mavzuning dolzarbligi;
- b)mavzuning tarixshunosligi:

I-Bob: I-Bob: Z.M.Boburning “Boburnoma” asarining yaratilishi va tarixiy voqealar bayoni

- 1.1.Z.M.Boburning “Boburnoma” asarining yaratilishi va uning O’rta Osiyo xalqlari tarixini o’rganishdagi ahamiyati.
- 1.2.Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida XV asr oxiri, XVI asr boshlaridagi tarixiy voqealar bayoni

II-Bob: Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida geografik hududlar va tarixiy shaxslar tasnifi

- 2.1. Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida shahar, viloyat va tumanlarning geografik tasnifi
- 2.2.“Boburnoma”da tarixiy shaxslar tasnifi

**III-Bob: “Z.M.Boburning “Boburnoma” asari O’rta Osiyo xalqlari tarixi va geografiyasini o’rganishda muhim manba” mavzusini darslarda o’quvchilarga o’rgatish.
(Yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish)**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Mundarija

Kirish

O'zbek klassik adabiyotining XV asr oxiri, XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atokli namoyandalaridan Zaxiriddin Muhammad Bobur o'zining qarama-qarshilikli, murakkab va qisqa hayotida (1483—1530) anchagina asarlar yaratgan bo'lsa-da, ularning hammasi bizgacha yetib kelgan emas.

Boburning hozirgacha ilm xazinasiga kelib kushilgan asarlari — uncha to'liq bo'lmagan bir devoni, islom dini asoslarini bayon etuvchi «Mubayyin» nomli she'riy risolasi, «Volidiya» atalgan tasavvufga oid bir kitobchaning nazm bilan tarjimai, Bobur ixtiro etgan va «Xatti Boburiy» nomi bilan mashhur bo'lgan alfavit jadvali hamda kulingizdagi «Boburnoma» asaridan iboratdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning bolalik va yeshlik davri asosan Andijon hamda Axsi shaharlarida o'tgan. U yoshligidanoq otasi saroyida ham ma'naviy, ham harbiy ta'limni chuqur o'zlashtiradi. Garchi Andijon ilm-ma'rifatda Samarqandchalik ravnaq topmagan bo'lsada, biroq, Umar Shayx Mirzo Samarqand hukmdori bo'lmish akasi Sulton Ahmad Mirzoga taklidan uz saroyiga ko'plab olimlar, adib va shoirlarni taklif qilgan¹.

Umar Shayx Mirzo vafot etgach, 1494 yil 10 iyun seshanba kuni, hali balogatga yetmagan 12 yoshli Zaxiriddin Muhammad Bobur Mirzo Farg'ona ulusi-ning hukmroni sifatida taxtga utiradi.

Zahiriddin Muxammad Bobur Mirzo o'ziga ishonchli beklari bilan Axsidan Andijonga kelganda, to'rt yog'och masofada bo'lgan Quva shaharida o'z amakisi — Movarounnahr hukmdori Sulton Ahmad Mirzo qo'shin bilan Andijon qasdida turganligi xaqida habar keladi. Ikkinchi tomondan Toshkent hukmdori (Bobur Mirzoning tog'asi) Sulton Mahmudxon Kosonni zabt etib, Axsini qamal qiladi. Uchinchi tomondan

¹ Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T., "Yozuvchi", 1995, 76-6er.

Qashqar xoni Abubakr dug'lot o'z qo'shini bilan Farg'ona ulusiga bostirib kelib, O'zgandni o'rab oladi.

Ammo Farg'ona beklari va amaldorlari o'z mustaqilliklarini saqlab kolish yo'lida qo'llaridan kelgan barcha chora-tadbirni ishga soladilar. Jumladan, ular Farg'ona taxtiga Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoni mavrusiy hukmdor etib tayinlashni Sulton Ahmad Mirzodan talab qilgan holda Xoja Qozi va Uzun Hasanni elchi qilib jo'natadilar. Mazkur elchilar talabnoma bilan birga Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzoning mahsus maktubini ham olib boradilar. Maktubda «... bu viloyatga albatta Sizning mulozimlaringizdan biror kishi tayinlanmog'i lozim. Men Sizga ham mulozim, ham farzandmen, agar bu xizmatni menga topshirsalar osonroq va yaxshiroq hal bo'lg'usidir»,— deb yozilgan edi.

Zotan Bobur Mirzo ta'riflaganidek, Sulton Ahmad Mirzo har bir ishni beklarining ra'yidan tashqari qilmas edi. Bu safar ham shunday bo'ldi. Elchilarning so'zini beklar qabul qilmay, olga qarab xujumga o'tadilar. Quvaning botqoq qora suvidan faqat ko'prik orqali o'tish mumkin edi. Ko'prik esa ko'p mingli otliq qo'shinga dosh beraolmay sinib, ko'p kishilar suvga garq bo'lganlar. Buning ustiga otlarga o'lat kelib, yuzlab otlar yerga yumalab o'la boshlaydi. Nihoyat, dushman qo'shini orasida vahima va sarosimalik avj olib, parokandalik boshlanib ketadi. Bu vaqtda mahalliy xalq o'z ozodligi yo'lida jondan kechib, bosqinchilarga qarshi qaqshatgich hujumni boshlaydi. Bunday chigal vaziyatda chorasiz qolgan Sulton Ahmad Mirzo sulxga rozi bo'lib, orqasiga qaytib ketadi.

Farg'ona xalqi Sulton Ahmad Mirzodek zabardast dushmandan xotirjam bo'lgach, Sulton Mahmudxon va Qashqar xoni Abubakr dug'lot askarlariga ham birin-ketin zarba berib, Farg'ona mustaqilligini qo'lda saqlab qoladilar.

Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga

oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan «Boburnoma» asaridir. Bu asar mazmunining rang-barangligi, bir jahon materialni o'z ichiga olganligi, til va uslubining go'zalligi bilan XVIII, ayniqsa XIX asr sharqshunos olimlarining diqqatini o'ziga tortgan va uning turli qo'lyozma nusxalari izlana boshlagan va g'arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi.

Asarning asli nomi «Boburiya» bo'lsada, uni «Voqeanoma», «Tuvuqi Boburiy», «Voqeoti Boburiy» deb atadilar, keyinchalik asar «Boburnoma» degan nom bilan mashhur bo'lib ketdi.

Bu asarning mavjud teksti 1857 yilda turkolog N.I.Ильминский tomonidan Qozonda tipografiya yo'li bilan o'zining to'rt betlik nodir prinsinlarini ko'rsatgan ruscha so'z boshisi bilan bosilgan. Asarni nashrga tayyorlash va dunyoga chiqarishda rus olimi N.I.Ильминскийning zo'r faoliyat ko'rsatganini alohida qayd etish kerak².

Bu nashrdan keyin 1905 yilda ingliz oriyentalistlaridan A.Beverij xonim «Boburnoma»ning Haydarobodda topilgan bir qo'lyozmasining faksimilesiii qo'lyozmaning ayni o'zini sinkografiya yo'li bilan nashr etdi. Bu nusxaning qachon va kim tomonidan ko'chirilgani noma'lum. Bu ham to'liq tekst bo'lsada, qozon bosmasiga nisbatan ba'zi tushib qolgan joylari va ayrim nuqsonlari bordir. Lekin umuman olganda har ikkala nusxa ham ayrim-ayrim nuqsonlardan holi emasdir. London nusxasining afzalligi shundaki, bunda A.Beverij nusxaning ayni o'zini berib juda yaxshi ish qilgan, shu bilan birga asar oxirida mukammal kishi ismlari, geografiya va qabila, urug' nomlari ko'rsatkichi berilgai va ingliz tilida o'n betlik so'z boshisi ham bor. Lekin ko'rsatkichlarni transliteratsiyasiz arab yozuvi bilan berilishi nomlarni to'g'ri o'qish masalasini qiyinlashtiradi³.

² Ahmedov B. «Tarixdan saboqlar». T., «O'qituvchi», 1994, 43-bet.

³ Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T., «Yozuvchi», 1995, 78-6er.

Mana shu ikki mavjud nusxaga asoslanib, 1948—1949 yillarda «Boburnoma»ning ikki qismdan iborat to'liq teksti bosib tarqatilgai edi. Bu nashr yangi o'zbek alifbosida, kishi va geografik nomlar ko'rsatkichi, to'liq lo'g'at, ba'zi bir qisqa izox va tarjimalar ilovasi bilan bosilgan edi.

Shundan keyin «Boburnoma»ning to'liq teksti 1960 yili qayta nashrga tayyorlandi va nashr etildi.

Ilgarigi nashri kabi bu nashrga ham yuqorida zikr etilgan London va Qozon bosma nusxalari asos qilib olindi. Shu ikkala nusxaga qaytadan taqqoslanib, ikkisiga ham tanqidiy qaraldi. Birisini birisi to'ldirish yo'li bilan tuzilgan mazkur tekstni anchagina mukammallashtirish bo'ladi. Nusxalarda ma'no jihatidan farq qiladigan so'zlar kelganda bundaylarning farq va variantlari bet ostida ko'rsatila borilgan. Shu jihatdan bu nashrning bet osti izohlari avvalgiga nisbatan anchagina ko'paygan edi.

Bu nashrni tayyorlash davomida ayrim so'z va terminlar transkripsiyasini aniqlash masalalarida «Boburnoma»ning Anqara (Turkiya)da turkchaga qilingan tarjimasi va filologiya fanlari kandidati M.Salbyenyng rusgacha qilgan to'liq tarjimasini ham ko'zdan kechira borilgan va shular bilan moslashtirishga urinishga urinilgan edi.

Kitob oxiriga ilova qilingan ko'rsatkichlar qayta tuzilgan va tarjimalar ham yangidan qarab chiqilgan. Asarning ilgarigi bosmasida ba'zi bir tushirib qoldirilgan joylari bu bosmada kiritilib, tekstni mukammallashtirilgan edi. «Boburnoma»ning biz tomondan tayyorlangan hozirgi nashrida ham ilgarigi nashrlaridagi kabi, yuqoridagi asosiy va yordamchi manbalarga taqqoslab, bosmada yuz bergan va o'z tomonimizdan yo'l qo'yilgan hato va kamchiliklarni bartaraf etish va tuzatishga urinildi. Tarjima va izoxlar ham qaytadan qarab chiqildi, izoxlar birmuncha to'ldirildi.

Ammo ilgari ham aytganimizdek, qilingan shu ishlarga qaramasdan, hali ham ishda birmuncha nuqsonlar mavjudligi aniq. Jumladan, ayrim so'zlar,

ayniqsa Afg'oniston. va Hindistonga taallukli bo'lgan jug'rofiy nomlar, kishi ismlari, xayvonot va boshqa xil atamalar transkripsiyasini batamom to'g'ri va aniq deb bo'lmaydi. Ish protsessida masalaning eng qiyin tomoni ham shu bo'ldi. Bulardan boshqa yana birmuncha tekstologik kamchiliklar bo'lishi mumkin. «Boburnoma»ning puxta tayyorlangan tanqidiy teksti maydonga chiqmaguncha va «Boburnoma»da ko'llangan O'rta Osiyo, Afg'oniston hamda Hindistonga oid barcha tarixiy nomlarning aniq transkripsiyasi ishlanmaguncha bu asarning nashrlarida noaniqlik va nuqsonlar yuz berishi tabiiydir⁴.

⁴ Ahmedov B. "Tarixdan saboqlar". T., "O'qituvchi", 1994, 44-bet.

I-Bob: Z.M.Boburning “Boburnoma” asarining yaratilishi va tarixiy voqealar bayoni

1.1.Z.M.Boburning “Boburnoma” asarining yaratilishi va uning O’rta Osiyo xalqlari tarixini o’rganishdagi ahamiyati

Boburnoma — jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik o’zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar hisoblanadi. Asar taxminan 1518/19 yillardan, 1530 yilgacha bo’lgan davrda eski o’zbek (chig’atoy) tilida yozilgan. Ushbu asar «Boburiya», «Voqeoti Bobur», «Voqeanoma», «Tuzuki Boburiy», «Tabaqoti Boburiy», «Tavorixi Boburiy» kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o’zi esa «Vaqoye» va «Tarix» degan nomlarni ishlatgan. «Boburnoma»da 1494—1529 yillarda Markaziy Osiyo, Afg’oniston va Hindistonda sodir bo’lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o’ta aniqlik bilan bayon qilingan bo’lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog’liqdir.

«Boburnoma» o’zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko’ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494—1504), Afg’oniston (1504—24) va Hindiston (1524—30)dagi hukmdorlik davriga bo’linadi. Birinchi qismda Boburning otasi — temuriylarning Farg’ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461—94) xususida hamda Boburning Farg’ona taxtiga o’ltirishi (1494 y. iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun ko’rash oqibatida o’z ulusidan mahrum bo’lishi (15-a. 90-y.lari), Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jangu jadallari (1497—1501)ning behuda ketishi, va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog’lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg’onistonga yuz to’tishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan. Ikkinchi qismda Boburning Qobulni zabt etgani, so’ng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg’ol qilgani (1511), lekin shayboniylar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek

Sulton)dan yengilib (1512), Qobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko'ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan. Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyni mag'lub etib, Shimoliy Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma'lumotlardan iborat⁵.

XV asrning oxirida Movarounnahr va Xurosonda feodal tarqoqlik hukm surar, har bir bek o'z ixtiyoricha ish tutishga harakat qilardi, Shayboiiyxonning tarixchisi Muhammad Solixning ta'biricha, «hamma bir-biridan qo'rqr, o'zicha shoxlik talab qilib, mamlakatda ig'vo urug'ini sochardilar». Movarounnahr tuprog'ida avj olgan o'zaro janglarda Bobur Mirzo ham qatnashishga majbur bo'ldi, Xalq ommasi og'ir ahvolda qolgan edi.

Sulton Mahmud Mirzo vafotidan so'ng, 1495 yil yanvar oyida uning ikkinchi o'g'li Boysung'ur Mirzoni Samarqand taxtiga o'tkazadilar. 1496 yil may-iyun oylarida Boysung'ur Mirzoga qarshi Samarqandda tarxonlar isyoni boshlanadi. Bundan habar topgan Bobur Mirzo ham Samarqand taxtiga da'vogar bo'lib, 17 iyunda o'z qo'shini bilan Shavdor tumaniga yetib kelib, Samarqand qamaliga kirishadi. Ayni shu paytda Sulton Ma'sud Mirzo Samarqandning ikkinchi tarafidan, Sulton Ali Mirzo esa uchinchi tarafdan qamal qiladilar.

Ammo urush yaqinlashib qolgani tufayli mazkur shaxzodalar Samarqandni qamaldan bo'shatib, o'z yurtlariga qaytib ketadilar.

1497 yil may oyida Bobur Mirzo Samarqandga ikkinchi marta qo'shin tortib kelib, Yer yayloq tumaniga o'rnashib, Boyso'ng'ur Mirzoga qarshi urush ochadi va Boyso'ng'ur Mirzoni shahap ichiga qamaydi. Samarqand shahari ittifoqchilar tomonidan yana qamal qilinadi. Biroq qish yaqinlashgani tufayli qamalni to'xtatib, shahardan chekinadilar. Ammo bu safar Bobur

⁵ Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T., "Yozuvchi", 1995, 86-6er.

Mirzo uzoqqa ketmaydi. U Xo'ja Diydor qal'asini o'ziga lashkargoh qilib belgilab, o'sha yerda qishlaydi.

Bu vaqtda shahar ichida oziq-ovqat tankisligi boshlanib, Boyso'ng'ur Mirzo ko'shinlari orasida parokandalik vujudga keladi. Boyso'ng'ur Mirzo ittifoqchilarga bas kelaolmasligini sezib, Shayboniyxondan ko'mak so'rab, Turkistonga odam yuboradi. Shayboniyxon fursatdan foydalanib, darhol qo'shin tortib kelib, shahar tashqarisida Bobur Mirzo lashkargohining ro'parasiga o'rnashadi. Bobur Mirzo Shayboniyxon bilan jang qilish maqsadida maydonga chiqsada, biroq Shayboniyxon urush maydoniga chiqmay, shahar ichiga kirishga harakat qiladi. Lekin Boyso'ng'ur Mirzo Shayboniyxonni shaharga kiritmaydi. Bu iltifotsizlikdan ranjigan Shayboniyxon o'z qo'shinini olib, Turkistonga qaytib ketadi.

Shundan so'ng Boyso'ng'ur Mirzo Samarqandni saqlab qololmasligiga aqli yetib, shaharni tashlab chiqib, Dunduz hukmroni Xusravshoh huzuriga ketadi. Nihoyat Samarqand arqoni davlati kengashib, navqiron Bobur Mirzoni shaharga kiritadilar va saltanatni boshqarishni taklif qiladilar. Shunday qilib, 1497 yil noyabr oyining ohirida Bobur Mirzo tantanali ravishda Samarqand taxtiga o'tiradi va Temur taxtining hakiqiy sohibi deb e'lon qilinadi. Uzoq davom etgan o'zaro urushlar natijasida Samarqand va uning atrofidagi aholi nihoyat darajada qiynalgan va ezilgan edi. Shahar deyarlik vayronaga aylangan, aholining mol-mulki esa talangan edi. Binobarin, Bobur Mirzo Samarqandda uzoq turaolmadi. Qo'shinni boqish, ot-ulovni yem-xashak bilan ta'minlash uchun hech narsa yuq edi. Aholiga biror narsa bilan ko'maklashish xaqida gapirmasa ham bo'lardi. Bunday vaziyatdan sarosimaga tushgan beklar birin-ketin Bobur Mirzoni tashlab qocha boshlaydilar. Buning ustiga Andijonda Uzun Hasanning saltanatga qarshi isyoni xaqidagi habar keladi. Yuz bergan siyosiy va iqtisodiy tanglikni mushohada qilgan Bobur

Mirzo, qanday bo'lmasin Andijonni saqlab qolish payiga tushadi. Mazkur sabablarga ko'ra, Bobur Mirzo Samarqandda 100 kun hukmronlik qilgach, uni taqdirning irodasiga havola qilib, tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi.

Bobur Mirzo Samarqanddan chiqib, Xo'jandga yetganda, Andijonning qo'ldan ketganligi, Uzun Hasan xokimiyatni qo'lga olib, Bobur Mirzoning diniy murabbiysi va xomiysi Xoja Qozini asirga olib, qatl qilingani xaqida habar keladi. Xo'jandda esa Muhammad Husayn Ko'ragon o'z xokimiyatini o'rnatgan edi. Samarqandni esa Sulton Ali Mirzo egallagan edi. Garchi Bobur Mirzo ikki yil davomida Samarqand bilan Andijon orasida sargardon bo'lsa-da, biroq har ikki shahardan aqilli birini qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lolmadi.

Farg'ona viloyatida Uzun Hasanning hukmronligi mustahkam emas edi. Chunki xalq og'ir soliqlar, o'lpon va turli jarimalarning ko'pligi oqibatida so'ng darajada qashshoqlashgan edi. Boz ustiga uzluksiz o'zaro qirg'inlar mehnatkash xalqning tinkasini quritgan edi. Nihoyat xalq qo'zg'olonlari boshlanib, Uzun Hasan xokimiyati larzaga kela boshlaydi. Vaziyatdan mohirlik bilan foydalangan Nosir Mirzo (Bobur Mirzoning kichik ukasi) shaharga hujum qilib, Uzun Hasan xokimiyatini tugatib, shaharni qo'lga oladi va keyin akasi Bobur Mirzoga topshiradi. Bobur Mirzoning Andijon taxtiga ikkinchi marta o'tirishi 1499 yil iyul oyiga to'g'ri keladi⁶.

Biroq Andijon taxtiga bo'lgan jangu jadallar tinchimadi. Bobur Mirzoning eng xavfli raqibi Sulton Ahmad Tanbal Umar Shayx Mirzoning ikkinchi o'g'li Jahongir Mirzoni Bobur Mirzoga qarshi qayray boshlaydi. Mazkur aka-uka shahzodalar va ularning orqasida turgan guruhboz bek va amaldorlarning o'zaro qonli nizolari har ikki tomonga ham biror manfaat keltirmadi. Aksincha, xalq ommasining og'ir ahvoli yanada mushkullashdi.

⁶ Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T., "Yozuvchi", 1995, 79-6er.

Mamlakatda oziq-ovqat tanqisligi kuchaya bordi. Nihoyat 1500 yil fevral oyining oxirida Bobur Mirzo bilan Jahongir Mirzo o'rtasida tinchlik sulhi imzolandi.

1500 yilda Muhammad Shayboniyxon Samarqandga xujum qiladi. Ammo hujum muvaffaqiyatsiz tugaydi. Shayboniyxonning Buxoroni zabt etishi Samarqand beklarini ancha tashvishga soladi va ular Sulton Ali Mirzoning siyosatiga qarshi turadilar. Ayni paytda Samarqandda oziq-ovqat tanqisligi boshlanib, ocharchilik avjiga chiqadi. Xalq noroziligi kuchayadi va saroydagi beklarning orasi buziladi. Bu tanglikdan qutulish uchun Sulton Ali Mirzo Shayboniyxon bilan muzokara boshlashga majbur bo'ladi. Sulton Ali Mirzoning tutgan siyosatidan norozi bo'lgan bek va amirlar Bobur Mirzoga odam yo'llab, Samarqandga taklif qiladilar. Ammo Bobur Mirzo kechikadi. 1500 yilda Sulton Ali Mirzoning roziligi bilan Samarqand Shayboniyxonga urushsiz taslim bo'ladi. Shayboniyxon Samarqandga kimgach temuriy shaxzodalarga nisbatan o'ta shafkatsizlik qiladi va ularni qilichdan o'tkazadi. Bu jazodan Sulton Ali Mirzo ham benasib qolmaydi.

1500 yilda Shayx Abul Mukarram boshchiligida Samarqand shaharining Feruza darvozasini Bobur Mirzoga ochib beradilar. Bobur Mirzo to'satdan shaharga bostirib kirib, Shayboniyxonning asosiy kuchini qirib tashlaydi. Bu paytda Shayboniyxon Konigilda edi. U qolgan qo'shinini yig'ib, Turkistonga chekinishga majbur bo'ladi. Bobur Mirzo Samarqand taxtiga ikkinchi marta o'tirishga musharraf bo'ladi.

Lekin Bobur Mirzo bu safar ham Samarqandda uzoq muddat tura olmaydi. Chunki shaharda vayronalik hamda daxshatli ocharchilik hukm surardi. Bu xaqda Bobur Mirzoning o'zi shunday yozadi: «Elga bisyor tanqislik bo'ldi. Anga yettikim, faqir va miskin it etini, eshak etini yeya kirishtilar». Ana shunday bir vaziyatda Shayboniyxon Bobur Mirzoga sulx

haqida muzokara yuritishni taklif qiladi.

Bobur Mirzo hech qayerdan hech qanday yordam ololmagach, noiloj sulhga rozi bo'ladi. Sulh bitimining shart-sharoiti haqida Bobur Mirzo o'zining «Boburnoma» asarida hech narsa demaydi. Mazkur sulhning shart-sharoitlarini Bobur Mirzoning qizi Gulbadanbegim o'zining «Xumoyunnoma» asarida quyidagicha izohlaydi: «Ana shunday vaqtda Shoxibekxon (Shayboniyxon) «agar o'z singlingiz Xonzoda begimni menga bersangiz, oramizda sulh tuziladi va ittifoqchilik aloqalari o'rnatiladi»,— deb aytgizib yubordi. Ohir Xonzoda begimni o'sha xonga berib, o'zlarining qaytishlari zarur bo'ladi.

Bobur Mirzo Samarqandni tashlab chikgach, o'ziga soliq kishilari bilan Toshkent hukmdori — tog'asi Sulton Mahmudxon huzuriga keladi va Shayboniyxondek makkor dushmanga qarshi birlashib kurashmoqqa da'vat qiladi. Ko'p iltijolardan so'ng, Sulton Mahmudxon rozi bo'lib, Qashqar hukmdori Sulton Ahmadxon bilan harbiy ittifoq tuzishadi. Ammo har ikki hukmdor Shayboniyxonga qarshi borishdan avval Farg'ona viloyatidagi qo'sh hokimiyatchilikni tugatishga qaror qiladilar. 1503 yilda 30 minglik qo'shin bilan Farg'onaga — Sulton Ahmad Tanbalga qarshi yurish boshlaydilar⁷.

Ittifoqchilarning yurish habarini eshitgan Sulton Ahmad Tanbal Shayboniyxondan yordam so'rab, uning huzuriga o'z ukalari Bek Telba va Shoh Boyazidlarni jo'natadi. Shayboniyxon qulay fursatdan foydalanib, Samarqanddan chiqib, O'ratepa va Xo'jand orqali o'tib Toshkent yaqinida ittifoqchilarga qattiq zarba beradi. Ana shundan so'ng Farg'ona viloyatida ham temuriylar hukmronligi inqirozga uchrab, halokatga yuz to'tadi.

Bobur Mirzoning endilikda o'zaro janglar va qirg'inlar natijasida nihoyatda ezilgan va qashshoqlashgan Farg'onani dushman qo'lidan qaytarib

⁷ Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T., «Yozuvchi», 1995, 82-6er.

olishga ko'zi yetmaydi. Chunki mamlakatdagi ichki ahvol beqaror, bek va amirlarning xalqqa nisbatan o'tkazgan istibdodi xalqning hukmdorlarga bo'lgan ishonchini butunlay yo'qqa chiqargandi. Shuningdek, Shayboniixondek kuchli dushman qarshisiga chiqmoqlik uchun ham Bobur Mirzoda yetarli kuch-qudrat yuq edi. Zero Bobur Mirzoga kelib qo'shilgan qo'shin ahlining ko'pchiligi mahalliy bek va amirlarga qarashli kishilardan iborat edi. Bunday kishilar ko'pincha beqaror bo'lib, ayni jang asnolarida pand berib kuyardilar. Holbuki, Bobur Mirzoga sadoqatli kishilar qo'shinda juda oz qolgan edi. Ular ikki yuzdan ortiq emas edi.

Bobur Mirzo mazkur vaziyatni o'zining o'tkir idroki bilan aql tarozusida o'lchab, Movarounnahrda bundan buyon sargardon bo'lib yurish befoyda ekanligiga imoni komil bo'lgach, qolgan askarlari va yaqin kishilarini olib, Hisor tomon ketadi.

1503 yil iyul oyida Hisor yayloqlaridan biri Iloq yaylog'iga kelib tushadi. Bobur Mirzo Xisorga kelishidan maqsadi Xisor hukmdori Xusravshohdan umidvor edi. Biroq Xusravshoxga yuborgan kishisi undan yaxshi habar olib kelmaydi. Shundan so'ng, Bobur Mirzo Iloqdan ko'chib, Qubodiyonga keladi. Ko'p utmay Xusravshohning inisi Bovi Chag'oniyo'niy o'z qo'shini va ko'ch-ko'roni bilan kelib, Bobur Mirzoga mulozimati ko'rsatadi.

Boqi Chag'oniyo'niy Termiz, Shahrifafo va Chag'oniyo'niyning hukmdori edi. Muhammad Shayboniixon Badaxshon va Hisorga bosib kelayotganini eshitgan Boqi Chag'oniyo'niy vaqt g'animatida Bobur Mirzoga kelib qo'shilgan edi. Ana shu asnoda Xuroson hukmdori Sulton Husayn Boyqarodan Bobur Mirzoga maktub keladi. Maktubda «Holo ham agar o'zbek mutavajjih bo'lsa, man Murg'ob yoqasini berkitay, Badi uz-Zamon Mirzo Balx va Shibirg'on va Andhuy qo'rg'onlariga mazbut kishilarini qo'yib, o'zi Turzivon va Darayi Zangda ul Kuxistonni berkitsun. Sen (Bobur

Mirzo — T. F.) Koxmard va Ojarda ul Kuxdoyani berkitib, Xusravshox, Xison va Qunduz qo'rg'onlarida extimoli kishilarini qo'yib, o'zi va inisi Vali Badaxshon va Xatlon tog'larini berkitsunlar. O'zbek ish qilolmay yong'isidur»,— deyilgan edi.

Ammo Bobur Mirzoning ta'biricha, Kohmard va Ojar tog' istexkomlari Sulton Husayn Boyqaro aytganday mudofaaga bardosh beraoladigan darajada emas edi. Ikkinchidan, Shayboniyxondek kuchli dushmanga zarba Beraoladigan qo'shin ham yuq edi. Uchinchidan, Shayboniyxonning Hisorga yaqinlashayotganini eshitgan Bog'i Chag'oniyoniy va boshqa beklar ayni zamonda Shayboniyxonga ro'para kelmaslikni talab qiladilar. Bobur Mirzo ham qo'shinning ozligini nazarda tutib, Samtu yo'li bilan Qizil suv tomonga yuradi. Huddi shu asnoda Hisor va Qunduzda bo'lgan mug'ul beklari o'zlarining uch to'rt ming o'nlik kishilari bilan kelib, Bobur Mirzoga qo'shiladilar. Bu habarni eshitgan Xusravshoh o'z kuyovi Ya'qub Ayubni maktub bilan Bobur Mirzo huzuriga yuboradi. Maktubda «agar ahd (bitim) qilsalar, qullikka kelgumdir»— deyilgan edi. Bobur Mirzo Ya'qub Ayub bilan bitim tuzadi. Bitimga muvofiq Xusravshoh uz qo'shini bilan kelib kushiladi.

Xusravshoh o'z qo'l ostidagi aholiga, sipohlariga jabr-zulmni haddan oshirgan edi. Binobarin, el va ulusining hatti-harakatlarida Xusravshohga nisbatan dushmanlik alomatlari zohir edi. Uning zolimligi shu darajaga yetgan ediki, o'z tarbiyasidagi Ma'sud Mirzoni ko'ziga mil tortib ko'r qilgan. Boyso'ng'ur Mirzoni bug'ib o'ldirgan edi⁸.

Xusravshohning zolimligi, bee'tiqodligidan bezgan barcha qo'shinlari Bobur Mirzo tomoniga o'tadilar. Bunga chiday olmagan Xusravshoh Bobur Mirzodan ijozat olib, Xurosonga ketadi. Shayboniyxon Xurosonni olganda, Xusravshohni tutdirib qatl qildiradi.

⁸ Ahmedov B. "Tarixdan saboqlar". T., "O'qituvchi", 1994, 48-bet.

Bobur Mirzo Qobul tomon yurib, 1504 yil sentyabr oyida Qobulni Zunnun arg'unning o'g'li Muhammad Muqimdan tortib oladi. Shunday qilib, Qobul va uning atrofi Bobur Mirzo tasarrufiga o'tadi⁹.

1505 yilda Xusayn Boykdro barcha o'g'illari qatori Bobur Mirzoni ham Hirotga chaqirtiradi. Bu yig'ilishdan maqsad — Shayboniyxonga qarshi ittifoq tuzib, urushga tayyorgarlik ko'rish edi. Bobur Mirzo bu kengashga albatta borajagini aytib, Sayid Afzalni jo'natadi.

1506 yil 5 may kuni Sulton Husayn Boyqaro Shayboniyxon ustiga qo'shin tortib, Bobo Ilohiy mavzeiga yetganda vafot etadi. Bobur Mirzo fotixa zarurati bilan Hirotga boradi va Sulton Xusayn Boyqaroning o'g'illari bilan uchrashib, ularning o'zaro ichki nizo va husumatlarini sezadi hamda bu shahzodalar bilan ittifoq tuzib, Shayboniyxonga qarshi kurashib bo'lmasligiga aqli yetib, noumid bo'lib qaytib keladi. Qobulga yaqinlasharkan, amakivachchasi Mirzoxon Qobulda isyon ko'tarib, o'zini shoh deb e'lon qilgani xaqida habar keladi. Bobur Mirzo ko'p qiyinchiliklardan so'ng, Qobulni isyonchilardan tozalab, o'z qo'lga oladi. Isyon boshlig'i Muhammad Husayn Mirzo bilan Mirzoxonni Xurosonga jo'natadi.

1507 yilda Shayboniyxon Hirot bilan butun Xurosonni zabt etgach, Dandahorga yurishga jazm qiladi. Bu paytda Bobur Mirzo Qandahorni aka-uka Shoxbek va Muhammad Muqim argunlardan tortib oladi va ukasi Nosir Mirzoni Dandahor hokimligiga tayinlab, o'zi Qobulga qaytib keladi. Qandahorning sobiq hukmdorlari Shayboniyxon huzuriga borib, arz qiladilar. Shayboniyxon Bobur Mirzoni Qandahorda deb gumon qilib, o'z qo'shini bilan kelib, shaharni qamal qiladi. Nosir Mirzo shaharda turolmay, Qobulga qochib keladi.

Bu habarni eshitgan Bobur Mirzo Shayboniyxon bilan uchrashishdan

⁹ Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T., "Yozuvchi", 1995, 85-6er.

ko'ra har holda ko'zidan nariroq turishga qaror qiladi. Bobur Mirzoning fikricha, mavjud vaziyat taqozosiga ko'ra, Shayboniyxon ko'zidan yiroqroq turish maqsadida Badaxshonga yoki Hindistonga yurmoqlik lozim edi. Nihoyat, Hindiston tomonga yurishga qaror qilinadi.

1507 yil sentyabr oyida Bobur Mirzo Qobulga amakivachchasi Abdurazzoq Mirzoni (Ulug'bek Mirzo Qobuliyning o'g'li) qo'yib, Hindiston safariga yo'l oladi. Ammo Shayboniyxon Qandahorni ololmay, sulh qilib, orqaga qaytgan habarni eshitgan Bobur Mirzo yana Qobulga qaytib keladi.

Nosir Mirzoga Razna viloyatini va Abdurazzoq Mirzoga Nanginahor, Mindaravur, Darayi Hyp, Kaz va Nurgul xokimligini in'om qiladi.

1508 yil mart seshanba kechasi Bobur Mirzoning katta o'g'li Xumoyun Mirzo tug'iladi. Shu munosabat bilan Bobur Mirzo o'zini bundan buyon Bobur podshoh deb atashlarini buyuradi.

1510 yilda Marv yaqinida Shayboniyhonning o'limidan so'ng, Bobur podshoh Eron shoxi Ismoil Safaviy bilan harbiy bitim tuzib, Samarqandga yurish boshlab, shaharni qo'lga kiritadi va bitimga muvofiq shoh Ismoil Safaviy nomiga xutba uqtiradi. Sunna mazhabiga mansub bo'lgan Movarounnahr xalqi, ayniqsa Samarqand beklari shia mazhabiga mansub bo'lgan shoh Ismoil Safaviy nomiga xutba o'qitilishidan qattiq norozi bo'ladilar. Natijada shahar xalqi orasida «Bobur podshoh shia mazxabini qabul qilibdi», degan mish-mishlar tarqaladi. Ruhoniylar ta'siri ostida bo'lgan keng xalq ommasi, mish-mishlarga ishonib, Bobur podshohga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'ladilar. Shunga qaramay, Bobur podshoh Samarqandda sakkiz oy hukmronlik qiladi.

Bu asnoda Shayboniylardan Ubaydulloxon besh ming qo'shin bilan Buxoroga yurish boshlaydi. 1512 yil 28 aprelda Hayrobod bilan Qorako'l o'rtasidagi Qulimalik yonida hal qiluvchi jang bo'ladi. Bu jangda Ubaydullaxon qo'shini kutilmaganda Bobur podshoh qo'shinini tor-mor

keltiradi. Bobur podshoh tezlik bilan Samarqandga qaytib keladi va o'z yaqinlari va qolgan askarlarini olib, Hisor orqali Qobulga ketadi. Bobur podshoh endilikda Movarounnahrda hukmronlik qilishni hayolidan butunlay chiqarib tashlaydi va taqdirga tan berib, yana Hindiston tomon yurish masalasini kun tartibiga qo'yadi.

Bobur podshoh Qobuldan Hindistonga besh marta yurish qiladi. Beshinchi yurishda, ya'ni 1526 yil 21 aprelda tarixda mashhur jang — Panipat jangi bo'ladi. Bu jang Dehli hukmdori Sulton Ibrohim ibn Sulton Iskandar ibn Bahlul Ludiylar bilan bo'lib o'tadi. Tarixchilarning hamjihatlik bilan bergan ma'lumotlariga qaraganda, Sulton Ibrohim Ludiylarning yuz mingga yaqin askar va mingtaga yaqin jangari fillari bo'lgan. Bobur podshohning esa jami un-un ikki ming askari bor ekan.

«Boburnoma»da keltirilgan barcha ma'lumotlar, xususan Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag'oniyon va Shimoliy Afg'onistonning XV asrning 80—90-yillari va XVI asr 1-choragidagi siyosiy ahvoliga doir habarlar o'zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi. Shuningdek asar muallifning muayyan tarixiy voqea haqida hamda o'zaro dushmanlik qilgan temuriylar — Umarshayh Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysung'ur Mirzo, Sulton Husayn va boshqalarning xulq-atvori, tabiati hususida bildirgan fikr-mulohazalari bilan ham ahamiyatlidir. Asarda, ijtimoiy-tabiiy fanlar, tarix falsafa, fiqh, din ta'limoti, tilshunoslik jug'rofiya, tabiatshunoslik ma'danshunoslik dehqonchilik bog'dorchilik va boshqalarga oid aniq va hanuzgacha o'z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan ma'lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Asarda bevosita Boburning o'zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha katta-kichik jang manzaralari mahorat bilan berilgan. O'sha davrdagi qo'shin tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurol-yarog' turlari, qurg'onbuzar qurilmalar bilan bir qatorda

asarda ko'plab harbiy-ma'muriy istiloxlar (tuman, ulus, ko'kaltosh, eshikog'a, axtachi, tarxon, shig'ovul, sharbatchi (sharbatdor), mubashshir, tug'chi, miroxur, rikobdor, dorug'a, murchil, manjaniq, o'ron va b.) ham uchraydi. Shuningdeq «Boburnoma»da temuriylar qo'shinining tuzilishi, harbiy san'ati va boshqalar haqida ham noyob ma'lumotlar bor. Bundan tashqari Movarounnahr, Afg'oniston, Xuroson va Hindiston o'tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasb-hunari, urf-odatlar, rasm-rusumlari, an'anaviy tadbir-marosimlari, shuningdek o'sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma'lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa Farg'ona, Andijon, Samarqand, Qobul, Hirot, Agra kabi yirik shahar-viloyatlarning jug'rofiy-ma'muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, qishloq xo'jaligi, daryo va suv havzalari, cho'l-adirlari, tog'-sahrolari, bog'u rog'lari, tabiati, iqlimi, hayvonot va o'simliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma'lumotlar beriladi. Xususan XV—XVI-asrlarda Turkiston viloyatida yashagan qora qo'ylik (qo'yunluk) qabilasining hamda Movarounnahrdagi turk-mo'g'ul qabilalarining urf-odatlar, harbiy mahoratlari haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa ilmiy jihatdan g'oyatda qimmatli bo'lib, ular o'zbek qozoq, qirg'iz va boshqa turkiyzabon xalqlar etnik tarixini o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. «Boburnoma»da Farg'ona, Samarqand shaharlari va shu nomdagi viloyatlar, Ohangaron vodiysi, O'ratepa va uning atrofi, Mascho, Hisor, Chag'oniya, Badaxshon, Qobul viloyati va boshqa joylar geografik jihatdan g'oyatda qiziqarli tavsif qilingan bo'lib, muallif o'zi yurgan yo'llar, o'zi bo'lgan shahar va qishloqlarni g'oyat darajada aniq tasvirlagan¹⁰.

Boburnomada Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Ohiy, Muhammad Solih kabi o'nlab ijodkorlar, Xoja Abdullo Marvariy, Qul Muhammad Udiy,

¹⁰ Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T., «Yozuvchi», 1995, 86-6et.

Shayx Noyiy, Yusuf Ali, Mullo Yoraq Shohquli G'ijjakiy, Husayn Udiy, Behzod, Shoh Muzaffar kabi ko'plab san'atkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatlariga xolis baho beriladi. Jumladan, Alisher Navoiy haqida shunday deyiladi: «Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytibturlar,— hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas».

Boburnoma XV asr o'zbek badiiy nasrining yorqin namunasi sifatida sof badiiy lavhalar, jonli tasvirlar, an'anaviy lirik chekinishlarga boy. Nasriy matn ichida keltirilgan xalq maqol-matallari, iboralari, ibratli o'gitlar, she'riy parchalar uning badiiyligini yanada oshiradi, o'ziga xos joziba bag'ishlaydi.

Boburnoma XVI asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko'p tillari — ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italʼyan, rus, hind, urdu va boshqa tillariga bir necha martalab tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o'nlab mamlakat olimlarining ilmiy tadqiqotlarida Boburnomaning insoniyat yaratgan o'lmas obidalar qatorida alohida o'rinda turishi ta'kidlanadi. Boburnomaning jahonga mashhur bo'lishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo'ldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to'liq nashrini (ingliz tilida) 1826 yilda J. Leyden va V. Erskin amalga oshirdi. F.Talbot esa mazkur nashr asosida 2 marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921 yilda ingliz sharqshunosi A.Beverij Boburnomani mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o'zida Boburnoma tarjimalari 9 marta nashr etildi.

Keyingi yillarda Boburnomaning prof. V. Takston tomonidan AQShda (Kembrij sh., Garvard Universiteti, 1993) hamda ikki jild hajmda, mukammal so'zliq ko'rsatkich va sharh-izohlar bilan Yaponiyada (Kioto, 1995—96) ilmiy-tanqidiy matni nashr etildi.

Ma'lumki, Boburnoma qo'lyozmalari matnida ba'zi yillar (1504—05,

1509—18, 1520—24) tafsiloti uchramaydi, 1508 va 1520 yil voqealari bayoni tugal emas. Mana shu uzilish bo'lgan o'rinlarni ingliz sharqshunoslari boshqa tarixiy manbalar asosida ma'lum darajada tiklaganlar. Boburnoma forschaga (1586), undan parchalar Vitsen tomonidan golland tiliga (1705), A.Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga (1828), Pave de Kurteyl tomonidan to'la holda fransuz tiliga (1871) tarjima qilingan. Boburnomani tarjima qilish va tadqiq etishda, shuningdek Afg'oniston (Abdulxay Habibiy), Pokiston (Rashid Axtar Nadviy, Shoh Olam Mavliyyot), Hindiston (Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul Hasan Rizviy), Turkiya (R.R.Arat va N.I.Bayur) kabi mamlakatlar olimlarining xizmati ham katta. Rus sharqshunoslari (N.I.Pantusov, S.I.Polyakov, V.Vyatkin) ham Boburnomadan parchalarni tarjima qilganlar. N.I.Ilyinskiy Boburnomani Qozonda nashr ettirdi.

Boburnomani hamda Boburning she'riy merosini o'rganishda o'zbekistonlik olimlar ham salmoqli hissa qo'shdilar. Prof.Fitrat tomonidan tuzilgan «O'zbek adabiyoti namunalari» xrestomatiyasida Boburnomadan parchalar, Boburning 31 g'azali, 2 masnaviy va 28 ruboiysi berilgan. M.Salbye Boburnomani rus tiliga to'la tarjima qilib, 3 marta (1958, 1982, 1993) nashr ettirdi (S.Azimjonovanning kirish so'zi va tahriri ostida). P. Shamsiyev va S.Mirzayevlar tomonidan Boburnomaning ikki jildli (1948) va bir jildli (1960) nashri chop etildi. 1956—66 yillarda Boburning uch jildli tanlangan asarlari chop etilib, unga Boburning she'riy devoni (1-jild) va Boburnoma (2—3-jildlar) kirgan. Bobur va uning ilmiy merosini o'rganishga S.Azimjonova katta ulush qo'shgan. Boburnomaning M.Salbye tomonidan qilingan tarjimalari uning batafsil so'z boshisi va tahriri ostida nashr etilgan.

1.2. Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida XV asr oxiri, XVI asr boshlaridagi tarixiy voqealar bayoni

XV asrning 90-yillarida Movarounnaxrdagi temuriylar saltanati amadsa mustakil boshqariladigan viloyatlarga aylanib qolgan edi. Kichik bir viloyatda hokimlik qilayotgan temuriy shaxzodalarning har biri poytaxt Samarqandni egallash, bobokalonlari utirgan taxtga chiqib, butun mamlakatga yagona hukmdor bulish orzusida edilar. Bu niyatga yetish uchun ular o’rtasida o’zaro ichki nizo avj olib ketgan bo’lib, mamlakat aholisining ham temuriylardan noroziligi kuchayib borayotgan bir davr edi.

Samarqand hukmdori Sulton Ahmad Mirzoning 1494 yilda vafot etishi bu holatni yanada keskinlashtirdi, mamlakatda boshboshdoqliq ko’p xokimiyatchilik vujudga keldi. Bu vaziyatdan temuriylarning shimoldagi qo’shnisi, Dashti Kipchoqda o’z hokimiyatini mustahkamlab olgan Muhammad Shayboniyxon (1451-1510) foydalanib qolish uchun 1497 yilda Movarounnahrni egallash uchun birinchi marta qurol bilan bostirib kirdi. Bunga 1496 yilda Samarqand taxtiga o’tkazilgan Boysunkur Mirzo ibn Sulton Mahmud (1479-1499)ning boshqa temuriy shaxzodalardan Samarqandni mudofaa qilishda ittifoqchilikka chaqirib qilgan taklifi ham sabab bo’lgan edi¹¹.

XI asrdan boshlab Balxash kuli va Sirdaryoning KUyi okimlaridan Dnepr daryosining kuyi oqimlarigacha bo’lgan xududlarda kipchok. va boshqa turkiy kabilalarning hukmronlik qilganliklari sababli bu xudud Dashti Kipchoq deb atalgan. Dashti Kipchok. chegaralari ba’zan Kavkaz toYelari, Krra va Kaspiy dengizlarigacha yetib borgan. Bu yerda Botuxon 1236 yilda asos solgan Oltin Urda davlati XIV asr boshlarida ikki kismga ajralib ketgan bo’lib, uning sharqiy kismida ayrim tarixiy manbalarda «Uzbeklar mamlakati» deb yuritilgan Ok Urda davlati tashkil topdi. Bu xUDUDDa

¹¹ Ahmedov B. “Tarixdan saboqlar”. T., “O’qituvchi”, 1994, 47-bet.

Jujixonning beshinchi o'g'li Shaybon urug'idan bo'lgan Abulxayrxon (1412-1468) 1428 yilda mustaqil davlatga asos soldi.

Oltin O'rda, Mug'uliston va temuriylar davlatlaridagi o'zaro urush va parokandalikdan ustalik bilan foydalangan Abulxayrxon o'z davlati hududlarini ancha kengaytirib oldi. Lekin urug' boshliqlarining mustaqil hukmronlikka intilishlari va 1468 yilda Abulxayrxon vafoti bu davlatning inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi. XV asrning 80-yillariga kelib, Abulxayrxonning nabirasi, Budok Sultonning o'g'li Muhammad Shoxbaxt Shayboniyxon (1451-1510) bobosining davlatini qayta tiklab, shayboniylar sulolasiga asos soldi. Yoshligida yetim qolgan Muhammad ukasi Mahmud bilan Muhammad Mazid Tarxon, Sultonali Mirzo xomiyligida Turkiston, Samarqand, Buxoro shaharlarida iloxiyat olimlari Muhammad Xitoiy, Xofiz Xusayn Busuriy kabi ulamolardan saboq olib, o'z davrining bilimdon, o'qimishli kishisi, iste'dodli shoiri bo'lib yetishdi. Muhammad Shayboniyxon buyuk davlat tuzish faoliyatini dastlab lashkar tuplash va yollanma qo'shin lashkarboshisi sifatida temuriylarga xizmat qilishdan boshladi. Shayboniyxon yollanma qo'shin boshlig'idan xon darajasiga kutarildi¹².

XV asr 90-yillarining o'rtalaridan Movarounnaxrning siyosiy xayotida Amir Temurning evarasi Zaxiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) ham sezilarli rol uynay boshladi. 1494 yil 10 iyun kuni 12 yoshida Farrona taxtiga utirgan yosh Bobur yuqoridagi voqealar haqida "Boburnoma"da quyidagicha ma'lumotlar bergan:

Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni

¹² Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T., "Yozuvchi", 1995, 89-90-91.

ramazon oyining beshida tarix sakkiz yuz to'qson to'qqizda Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshta podshoh bo'ldum¹³.

Bobur Mirzoning amakisi Sulton Ahmad (1469-1494 yy. Samarqand xrkimi), Toshkent xokimi, torasi Sulton Mahmudlar xujumlarini qaytarib, 1496 yilda Samarqand shax-rini kamal qiladi, lekin kish yakinlashib kolgani uchun kamalni tuxtatadi. 1497 yil mayida Bobur Samarqandni ikkinchi bor kamal qilganida Shayboniyxon bilan birinchi marta yuzma-yuz bo'ldi.

Yosh Bobur mirzoning ota taxtiga o'tirish davri Movarounnahrda feodal tarqoqlik kuchaygan, o'zaro qonli urushlar avjiga chiqqan davrga to'g'ri keldi. Zero, o'sha davrdagi tarixiy sharoit Bobur mirzoni ham bu qonli kurashlar girdobiga tortdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur kurashdi, mag'lubiyatga uchradi, katta g'alabalarga erishdi. Og'ir qismat o'rnini katta baxt, shon-shavkat egalladi. Bularning bari-ga Bobur podshoh sabr-qanoat, aql-zakovat, jasorat, halollik, odillik salohiyati bilan erishdi. U Hindistonda buyuk saltanatga asos soldi. Bobur podshohning buyuk-Ugi ham ana shundadir.

Bobur Sharq mamlakatlari taxtiga munosib hukm-dorlarning yorqin namoyondalaridan biridir.

Uning shaxsi ohjanob inson va ulug' hukmdorga xos fazilatlardan tarkib topgan edi. Ko'ngli ochiq va beg'araz, ayni paytda yoshlik g'ayrati va shijoati hech qachon tark etmagan, bag'ri keng, qarindoshlari va do'stlari haqida doim g'amxo'r edi. Shuningdek, fuqaro-larning tashvishlariga hamdardlik ko'rsata olgan saxovat-pesha hukmdor ham edi.

Bobur podshohning buyuk saltanat yaratish yo'Uda olib borgan jangu jadallari uni tinchlikni ta'minlash va qadrlash hissidan mahrum etmagan.

¹³ Bobur Z.M. "Boburnoma". T., "Yulduzcha", 1989, 54-bet.

Bobur bobokaloni Amir Temurdek bunyodkorlik ishlariga katta e'tibor bilan qaragan davlat arbobi edi.

Bobur podshoh bilimga chanqoq buyuk davlat arbobi bo'lganligi uchun ham bilim olishga intilganlarga hamisha otalarcha g'amxo'rlik qilgan. Uning o'zi ham ajoyib olim, turkiy nazmda asarlar bitgan Alisher Navoiydan keyin turadigan tengi yo'q shoir, yirik bas-takor edi. Bobur podshoh o'zining «Boburnoma» ham-da «Mubayyin», «Turkiy devon» kabi asarlari bilan mashhur ijodkor hamdir. «Boburnoma» asari O'rta Osiyo tarixini, Hindiston tarixini to'g'ri aks ettirgan asardir.

Bobur podshoh davlat ishlarini yuritishda masalaning iloji boricha tinch vositalar va adolat yo'li bilan hal qili-nishiga intilgan. Kimki unga bosh egib kelgan bo'lsa uning gunohidan o'tgan. Kimki Bobur podshoh hokimiyatini tan olgan bo'lsa unga o'zi egalik qilib tur-gan hudud in'om etilgan, o'zi o'sha hudud hukmdorligi-da qoldirilgan. Hindiston hukmronligi yillarida turli dinga mansub xalqlarning diniy e'tiqodini, urf-odatlarini kamsitmagan, aksincha, hurmat bilan qaragan.

Bobur podshoh har bir davlat arbobiga, amirlarga, lashkarlarga xizmatiga va mavqeiga yarasha muruwat ko'rsatgan.

Shuningdek, Bobur podshoh unga hamroh, safdosh bo'lgan arboblardan kimki o'z vataniga qaytishini istagan bo'lsa, ularning ra'yini qaytarmay, ularga ruxsat bergan, ayni paytda xizmatlariga yarasha muruwat ham ko'rsatgan.

Bobur podshoh ayni paytda fitnaga, munofiqlikka, xoinlikka toqat qila olmas, bunday ishga qo'l urganlarni beayov jazolar edi. O'limi oldidan Bobur podshohning o'z vorisi, o'g'li Humoyunga eng awalo o'zi hukmron bo'lgan yerda qunt va halollik bilan siyosat ohb borish-ni, aybdorlarni jazolashda aybidan pushaymon bo'lgan-larga nisbatan shafqatli va saxovatU bo'lishni,

kambag'al va bechoralarni o'z himoyasiga olishni vasiyat etganHgi ham Bobur podshoh buyukhgining bir belgisidir.

Bobur podshoh buyuk davlat arbobi bo'lishi bilan birga, atoqli sarkarda ham edi. Mana shu ikki xislat uni buyuk saltanat egasiga aylantirgan. Bobur podshoh yashagan Bobur — mohir sarkarda o sha ziddiyatli, beomon, besaranjom zamonda davlatni boshqarish uchun jasur sarkarda bo'Ush juda muhim edi.

Tabiat Bobur podshohga ana shunday xislatni in'om etgan edi. Bobur isrnining lug'aviy ma'nosi «yo'lbars»dir. Bu nom unga bejiz berilmagan edi. U ajoyib suvoriy, suzuvchi, qihchboz, kamonboz edi. Uning vujudida sarkardalarga xos dovyuraklik, serg'ayratlik, epchillik mujassam edi. Epchillikda unga teng keladigan odam kamdan-kam topilgan. anbalarda qayd etilishicha, u jismoniy shunday baquwat ham bo'lganki, ikki qo'ltig'iga ikki odamni olib qal'a devori ustida mashq qilgan. Bundan tashqari, Bobur o'limga tik qarash, o'ziga va o'z taqdiriga ishonish kabi fazilatlarga ega bo'lgan. Bu fazilatlar esa Boburga kishilarni doimo o'z orqasidan ergashtirish imkonini bergan¹⁴.

Bobur kimlar bDan janglarda to'qnash kelgan bo'lsa ularning tajribalarini o'rgangan. Chunonchi, shayboniylardan urushning «to'lg'ama» usulini, mo'g'ullardan pistirma qo'yish, afg'onlardan poroxH miltiq ishlatishni, turklardan esa othq qo'shinni unumh ishlatishni o'rgangan. Bundan tashqari, Bobur kuchli to'pchilar qo'shinini tuza olgan.

Bobur Hindiston yurishidan oldin intizomli va tajri-bah sarbozlardan iborat qo'shin tuza olgan. Bobuming mohir sarkardaligini hatto chet el olimlari ham tan olganlar. Bobuming 12 ming kishilik lashkari bilan 100 ming kishilik lashkarga ega bo'lgan Dehli sultonim tor-mor etgani ham uning mohir sarkardaligini isbotlaydi.

¹⁴ Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T., "Yozuvchi", 1995, 90-6et.

Bobur nafaqat buyuk davlat Bobur mirzo — mashhur tarixchi olim hamdir. Bu borada uning nomini abadiylikka muhrlagan asar — «Boburnoma»dir.

Bu asar — Movarounnahr, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi haqida juda qimmatli ma'lumotlar beradi.

Bu xotira asarlar sirasiga kiradi. Asar 1493—1529-yUlar oralig'ida bo'lib o'tgan tarixiy voqealar, asarda tilga olingan joylar tabiat haqida yilmayil hikoya qiladi.

Xususan, «Boburnoma»da Shayboniynonning Samarqandni egallashi tafsiloti quyidagicha: «Samarqand hukmdori Sultonali mirzoning onasi Zuhrebegi og'amaslig'idin va beaqllig'idin maxfiy Shayboniynong'a kishi yiborur, bu mazmun bilakim, Shayboniynon ani olur bo'lsa, o'g'li Shayboniynong'a Samarqandni bergay. Otasining viloyatini olg'ondin so'ng Sultonali mirzog'a bergay...

Shayboniynon ushbu xotunning va'dasi bila kelib Bog'i Maydong'a tushti. Tush vaqtida Sultonali mirzo bek-bekotig'a, yigit-yalangiga, hech kimga xabar qilmay, hech kim bila kengashmay, bir necha yovug'idagi kichik-kirim bila chorraha darvozasidan Bog'i Maydong'a, Shayboniynon qoshig'a bordi... Bu bedavlat xotun chun noqisi aql edi, erga tegar havosi bila o'g'lining xonu monin barbod berdi... Samarqandni o'zbek olg'och, Keshdin Hisor sori mutavajjih bo'lduk. Muhammad Mazid tarxon boshliq Samarqand beklari ko'ch va ahlu ayollari bila bizning bila tebradilar» («Boburnoma»).

Asosiy xulosa shuki, ba'zi temuriyzoda hukmdorlar birgalashib umumiy dushmanga qarshi kurashish o'rniga o'z dushmanlari bilan o'z manfaatlari yo'lida (Vatan manfaati yo'lida emas) kelishishga harakat qilganlar.

Bobur o'z kitobida Hindiston haqida jumladan quyidagilarni yozib qoldirgan: «Hindiston... bizning viloyatlardan o'zgacha olamdir. Tog' va daryosi, jangal va sahrosi, hayvonot va nabototi, eli va till, yomg'iri va eli — barchasi o'zgachadir...

Hindistonning aksari viloyati tuz yerdan bo'libtur... Hindistonning bir ulug' aybi budurkim, oqar suvi yo'qtur...»

O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Bobur tavalludining 510 yilligi juda keng miqyosda ni-shonlandi. Boburning buyuk xotirasini ulug'lash yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, Andijonda Bobur haykali o'rnatildi, ramziy maqbarasi qurildi.

«Bobur Milliy bog'i» va shu bog' qoshida «Bobur va jahon adabiyoti» nomU muzey tashkil etildi.

Boysunkur Mirzoning Shayboniylarga Samarqand darvozasini ochmagani sababli, u Bobur bilan jang kilmasdan maydonni tashlab ketdi. 7 oylik kamaldan keyin Samarqandni erallagan Bobur poytaxtda 100 kun hukmronlik kildi. Farronada ukalari sabab kelib chikkan nizoni bartaraf etish uchun Bobur Samarqandni tashlab chikdi va 1500 yilgacha u yerda tinchlik o'rnatish bilan ovora bo'ldi. Butun Movarounnaxr yerlarini birlashtirish maksadi bilan yonayotgan Bobur xatto tinchlik uchun Farronani ham ikki kismga bo'lib, ukasi Jahongirga Sirdaryoning shimoliy kismini berishga majbur bo'ldi.

Bu paytda asosiy maksadi temuriylar saltanatira butunlay barham berish bo'lgan Shayboniylar Buxoro, Samarqand, Qarshi, G'uzor, Shoxruxiya shaharlarini egalladi. Bu shaharlardagi dasht uzbeklarining kirrin va talonchiliklari maxalliy xalq ichida Shaybo-niylarga karshi harakatlarning paydo bulishiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan Bobur 1501 yilda Samarqandni ikkinchi marta egalladi. Bobur Mirzoning

Samarqandni egallaganligi va Samarqand viloyatini tasnifi haqida asarda quyidagicha ma'lumotlar berilgan:

Abdullatif mirzodin so'ngra Shoxrux mirzoning nabirasi Ibrohm Sulton mirzoning o'g'li Abdullo mirzokim, Ulurbek mirzoning kuyovi edi, taxtga o'lturdi. Bir yarim yil, ikki yilga yovuqra podshoxlik qildi. Andin so'ngra Sulton Abusaid mirzo oldi, hayotida ulur o'g'li Sulton Ahmad mirzoga berib edi. Sulton Abusaid mirzodin so'ng Sulton Ahmad mirzo podshoxlik qildi. Sulton Ahmad mirzoning favtidin so'ng Sulton Mahmud mirzo Samarqand taxtiga o'lturdi. Sulton Mahmud mirzodin so'ng Boysunqor mirzoni podshoh qildilar. Tarxonning g'avg'osida Boysunqor mirzoni tutub, inisi Sulton Ali mirzoni bir-ikki kun o'lturg'uzdilar. Yana Boysung'or mirzo oldi. Nechukkim, bu tarixida mazkur bo'ldi. Boysung'or mirzodin men oldim, mundin so'ngra vaqoyeda uzga kayfiyatlar ma'lum bo'lg'usidur¹⁵.

Samarqand taxtiga o'lturg'och, Samarqand beklarini burung'udek rioyat va inoyat qildim. Bizing bila bo'lg'on beklarni ham faroxuri xollarira yarasha tarbiyat va shafqat qildim. Sulton Ahmad Tanbalning borasira rioyat ko'proq voqe bo'ldi. Ichki beklar chargasida edi, ulug' beklar chargasida rioyat qildim. Samarqandnikim, yetti oy muxosara qilib tashvishlar bila olduq avval kelganda cherik eliga o'lja-mo'ljadek nima tushub edi. Bir Samarqanddin o'zga jam'i viloyatlar manga kirib edi, yo Sulton Ali mirzoga bu kirgan viloyatlarni chopib bo'lmas edi. Muncha tolon va toroj tortg'on viloyatlardin nima olmoq xud nechuk muyassar bo'lg'ay.

Cherik elining ulchasi tugandi. Samarqandni olg'onda Samarqand andoq harob edikim, madad va tuxm va taqovira extiyoj bor edi. Chi joyi ulkim, kishi andin nima ola olg'ay. Bu jihatlardin

¹⁵ Bobur Z.M. "Boburnoma". T., "Yulduzcha", 1989, 58-bet.

cherik eli ko'p tanqislik torttilar. Biz ham elga nima yetko'ra olmaduk. Uylarini ham sog'indilar. Birar-ikkiror qochmoqga yuz qo'ydilar. Avval kishikim qochti Xonquli Bayonquli edi, yana Ibroxim Bekchik edi. Mug'ullar tamom qochtilar. So'ngra Sulton Ahmad Tanbal ham qochti. Bu fitnaning taskini uchun Xoja qozini yibordukkim. Uzun Hasan Xojaga o'zini heyli muxlis va mu'taqid tutar edi. Uzun Hasanning ittifoqi bila qochqonlarning ba'zisiga sazo bergaylar, ba'zisini bizning qoshimizga yiborg'aylar.

Bu fitnalarni angiz kiluvchi, mundin qochib borronlarni yomonlikka tez qiluvchi xud Uzun Hasan haromnamak ekandur. Borchasi Sulton Ahmad Tanbal borron bila zoxir va oshkora yomonlik maqomida bo'ldilar. Samarqandni olmoq doiyasi bila necha yilkim bajid cherik tortar eduq Sulton Mahmudxondin agarchi mu'taddun bix madad va ko'mak bo'lmas edi, vale Samarqand fatxidin so'ng Andijonni tama' qilur edi. Bu fursattakim aksar cherik eli va mug'ullar tamom qochib Andijon, Axsiga bordilar. Uzun Hasan va Tanbal ul viloyatlarni Jahongir mirzoga tama' qildilar. Necha jihatdin mumkin emas edikim, alarg'a berilgay. Biri ulkim, agarchi xonga bu viloyatlarni va'da qililmaydur edi, vale xon tilab edi. Xon tilab turub, Jahongir mirzoga berilsa, xon bila tamom yakru bo'lmoq kerak edi. Yana bir bukim mundoq mahaldakim, el qochib ul viloyatka bordi, taxakkum tariyqi bila tama' qiladur, agar burunroq bu so'z orada bo'lsa edi, filjumla vajxi bor erdi, alarning taxakkumini kim tortar bulg'ay? Myg'ul va Andijon cheriki va ba'zi beklardin, ichqilardin ham Andijonga borib edilar. Mening bila Samarqandta bek va yigit, yaxshi va yamon mingga yovuqcha kishi qolib edi. Alarning istid'osidek chun muyassar bo'lmadi, Qochib borron tavaxdumluk ellarni tamom tilab o'zlariga qo'shtilar. Tavahhumluk ellar xud mundoq va'jeni o'z ko'rkunchidin tengridin

tilar edilar. Axsidin Andijon ustiga cherik tortidi yamonlik va yog'iylikni sarix va oshkora qildilar.

Movarounnaxrda uziklng asosiy rakibi Bobur ekanligini sezgan Shayboniyxon asosiy kuchlarni Samarqand yakiniga tuplab xal kiluvchi jangga kirdi. Ochik jangda yengilgan Bobur shaharga kirib, mudofaaga kirishdi, lekin boshqa temuriylardan yordam bo'lmagach, Shayboniyxon bilan sulx tuzib, Samarqandni tashlab chikishga majbur bo'ldi. Shundan keyin Bobur 250 kishisi bilan Afronistonga keldi va Krbul podsholigiga asos soldi. 1510 yilda Marv yakinida Shayboniyxon qo'shini ustidan ralaba kozongan Eron shoxi Ismoil Safaviy Bobur Mirzoga birgalikda Samarqandga qo'shin tortishni taklif etdi. Bu taklifni qabul qilgan Bobur Muhammad Shayboniyxon vafoti (1510) bilan O'zaro kelishmov-chilik sababli ancha zaiflashib qolgan shayboniylar Hukmronligi ostidagi Xisor, Qulob, Qunduz, Badaxshon, Qarshi, yerlarini egallab, Samarqand shahrini 1511 yilda uchinchi marta bosib oldi. Boburning ittifoqchilari, o'sha mazxabidagi eroniy qizilboshlilarning talon-tarojlari sababli mahalliy aholi Boburni qo'llab-quvvatlamadi. 1512 yil oxirlarida Ubaydulla sulton qo'shinlaridan Buxoro yaqinida mag'lubiyatga uchragan Bobur Movarounnaxrdan butunlay umidini uzib ketdi. Qobul atrofida o'z hukmronligini to'la mustahkamlab, 1526 yil boshida Hindistonga yurish boshladi va u yerdagi Ibrohim Ludiyning qo'shinlarini to'la tor-mor keltirib, yangi saltanat — Boburiylar saltanatiga asos soldi. Bu saltanat Hindistonda 332 yil (1526-1858 yillar) hukmronlik qildi.

II-Bob: Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida geografik hududlar va tarixiy shaxslar tasnifi

2.1. Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida viloyat va tumanlarning geografik tasnifi

Boburnomada Movarounnahr, Afg'oniston, Xuroson va Hindiston o'tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasb-hunari, urf-odatlar, rasm-rusumlari, an'anaviy tadbir-marosimlari, shuningdek o'sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma'lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa Farg'ona, Andijon, Samarqand, Qobul, Hirot, Agra kabi yirik shahar-viloyatlarning jug'rofiy-ma'muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, qishloq xo'jaligi, daryo va suv havzalari, cho'l-adirlari, tog'-sahrolari, bog'u rog'lari, tabiati, iqlimi, hayvonot va o'simliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma'lumotlar beriladi.

Boburnomada Farg'ona, Samarqand shaharlari va shu nomdagi viloyatlar, Ohangaron vodiysi, O'ratepa va uning atrofi, Mascho, Hisor, Chag'oniyon, Badaxshon, Qobul viloyati va boshqa joylar geografik jihatdan g'oyatda qiziqarli tavsif qilingan bo'lib, muallif o'zi yurgan yo'llar, o'zi bo'lgan shahar va qishloqlarni g'oyat darajada aniq tasvirlagan. “Boburnoma”da Farg'ona viloyati, bu yerdagi shaharlar, ularning ob-havosi, aholining xo'jaligi haqida quyidagicha ma'lumotlar berilgan:

Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma'muraning kanorasida voqe bulubtur. Sharqi Koshrar, rarbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi torlar, shimolida agarchi burun shaharlar bor ekandur, misli: Olmoliq va Olmotu va Yangi kim, qutublarda Tarozkent bitirlar, murul va o'zbek jihatdin bu tarixda buzulubtur, aslo ma'mura qolmabdur. Muxtasar viloyattur, oshlik va mevasi farovon. Girdog'irdi tor voqe bo'lubtur. G'arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo'jand bo'lg'ay, tor yo'qtur. Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin kish yog'iy kela olmas. Sayxun daryosikim, Xo'jand

suyira mashhurdur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi bo'ylab o'tub, g'arb sori oqar, Xo'jandning shimoli Fanokatning janubi tarafidinkim, xolo Shoxruxiyara mashhurdur, o'tub yana shimolg'a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xeyli quyi-roq bu daryo tamom kumra singar, hech daryora qotilmas¹⁶.

Bobur Mirzo Farg'onaning poytaxt shahri Andijonni quyidagicha ta'riflaydi:

Yetti pora kasabasi bor beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikki shimoli jonibida. Janubiy tarafidagi kasabalar bir Andijondurkim, vasatta voqe bo'lubtur, Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Kovun mahalida poliz boshida kovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo'lmas. Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'onidin so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqe bulubtur. To'qquz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas. Qal'aning girdo-girdi xandaqning tosh yoni sangrezalik shoxrox tushubtur. Qal'aning girdo-girdi tamom mahallottur. Bu mahalla bila qal'aga fosila ushbu xandak yoqasidogi shoxruxdur. Ovi kushi dog'i ko'p bo'lur, qirg'ovuli bexad semiz bo'lur. Andoq rivoyat qildilarkim, bir qirg'ovulni uskunasi to'rt kishi yeb tugata olmaydur. Eli turkdur. Shahar va bozorisida turki bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur.

O'sh shahri haqida quyidagicha ma'lumot berilgan:

Yana bir Ush kasabasidir. Andijonning sharqi janubiy tarafidur, sharqqa moyil, Andijondin to'rt yig'och yo'ldur. Havosi xub va oqar suyi farovondur. Baxori biser yaxshi bo'lur. Ushning fazilatida xeyli axodis vorid bulubtur. Qo'rg'onning sharqi janubiy bir mavzui tog' tushubtur, Barokuxga mavsum. Bu tog'ning kullasida Sulton Mahmudxon bir xujra

¹⁶ Bobur Z.M. "Boburnoma". T., "Yulduzcha", 1989, 66-bet.

solibtur, ul xujradin quyiroyq ushbu tog'ning tumshug'ida tarix to'qquz yuz ikkida men bir ayvonlik xujra soldim. Agarchi ul xujra mundin mo'rtafe'dur, vale bu xujra biser yaxshiroq voqe bo'lubtur. Tamom shahar va maxallot oyog' ostidadur. Andijon rudi O'shning mahallotining ichi bila o'tub, Andijonga borur. Bu rudning har ikki jonibi bog'ot tushubtur, tamom bog'lari rudka mushriftur, binafshasi biser latif bo'lur. Oqar suvlari bor, bahori bisyor yaxshi bo'lur, qalin lola va gullar ochilur. Barokux tog'i domanasida shahar bila tog'ning orasida bir masjid tushubtur, masjidi Javzo otliq. Tog' tarafidin bir ulug' shaxjuy oqar. Ushbu masjidning tashqari saxni nishebroq sebargaliq pursoya, safolik maydon voqe bo'lubtur. Har musofir va raxguzar kelsa, anda istiroxat qilur. Ul avboshining zarofati budurkim, har kim anda uyqulasa, ul shaxjuydin suv quyarlur. Umarshayx mirzoning oxir zamonlarida qizil bila oq mavjlik tosh ushbu tog'da paydo bo'ldi: pichoq dastasi va takband va ba'zi nimalar qilurlar, xeyli yaxshi toshdur. Farg'ona viloyatida safo va xavoda O'sh chog'lik kasaba yo'qtur.

Farg'ona viloyatining markaziy shaharlari bo'lgan Marg'ilon shahri haqida "Boburnoma"da quyidagicha ma'lumotlar berilgan:

Yana bir Marg'inondur, Andijonning g'arbidadur, Andijondin yetti yig'och yo'ldur. Yaxshi qasaba voqe bo'lubtur, pur ne'mat; anori va urug'i asru ko'p xo'b bo'lur¹⁷. Bir jins anor bo'lur, «dona kalon» derlar, chuchukligida zardolu mayxushligidin andak choshni bor. Samnon anorlariga tarjex qilsa bo'lur. Yana bir jins o'ruk bo'lurkim, donasini olib, ichiga mag'z solib quruturlar, «subxoniy» derlar, biser lazizdur. Ovi qushi yaxshidur, oq kiyik yovuqta bo'lur. Eli sorttur va mushtzan va pursharu shur eldur. Jangaralik rasmi Movarounnaxrda shoye'dur, Samarqand va Buxoroda nomdor jangaralar aksar Marg'inoniydur. Soxibi «Hidoya» Marg'inonning Rushdon otliq kentidindur.

¹⁷ Bobur Z.M. "Boburnoma". T., "Yulduzcha", 1989, 68-bet.

“Boburnoma”da Isfara, Xo’jand, Konibodom, Axxi, Koson shaharlari haqida ham quyidagicha ma’lumotlar berilgan:

Yana bir Isfaradur, kuxpoyada voqe bo’lubtur. Oqar suvlari, safolik bog’chalari bor. Marg’inonning g’arbi janubidadur. Marg’inon bila Isfara orasi to’qquz yiroq yo’ldur. Musmir daraxtisi bisyordur, vale bog’chalarida aksar bodom daraxtidur. Eli tamom sort va kuxiydur. Isfaraning bir shar’isida janub sori pushtalarning orasida bir parcha tosh tushubdur, «Sangi oyina» derlar, uzunligi taxminan o’n kari bulgay, balandligi ba’zi yeri kishi buyi, pastligi, ba’zi yeri kishining belicha bulgay, oyiadek har nima mun’akis bo’lur.

Isfara viloyati to’rt buluk ko’xpoyadur: bir Isfara, yana bir Voruh yana bir Suxo’ yana bir Hushyor. Muhammad Shayboniyxon Sulton Mahmudxon bila Olachaxonga shikast berib, Toshkand va Shoxruxiyani olg’on mahalda, ushbu Sux bila Hushyor ko’xpoyalariga kelib, bir yilga yovuk tankislik bila utkarib, Qobul azimati qildim.

Yana bir Xujanddur, Andijondin g’arb sorig’a yigirma besh yig’och yo’ldur. Xujanddin Samarqand ham yigirma besh yig’och yo’ldur, qadim shaharlardindur. Shayx Muslixiddin va Xoja Kamol Xujandtindurlar.

Mevasi farovon va bisyor yaxshi bulo’r. Anori yaxshilikda mashhurdur. Nechukkim, «sebi Samarqand» derlar va «anori Xo’jand» derlar. Vale bu tarixda Marg’inon anori ko’p ortuqdur.

Qo’rg’oni baland yerda voqe bo’lubtur. Sayxun suvi shimol jonibidin oqar. Qo’rg’ondin daryo bir qo’yi otimi bo’lg’ay. Qo’rg’on bila daryoning shimol tarafida bir tog’ tushubtur. Munug’il otliq derlarkim, bu tog’da firuza koni va ba’zi konlar topilur. Bu tog’da bisyor yilon bor.

Xo’jandning ovlog’i va qushlari bisyor yaxshidur. Oq kiyiq burumaral, kirg’ovuli ko’p bo’lur. Havosi bisyor mutaaffindur, kuzlar bezgak ko’p

bo'lur. Andoq rivoyat qildilarkim, chuchuk bezgak bo'lg'ondur. Derlarkim, xavobining taffuni shimoldagi tog' jihatidindur.

Muning tavobidin Kandibodomdur. Agarchi qasaba emas, yaxshigina kasabachadur. Bodomi yaxshi bo'lur. Bu jihatdin bu ismga mavsumdur. Hurmuz va Hindustong'a tamom muning bodomi borur. Xo'janddin besh-olti yiroq sharq tarafidadur. Xo'jand bila Kandibodom orasida bir dasht tushubtur, Xadarveshga mavsumdur. Hamisha bu dashtta yel borur. Marg'inongakim, sharqidur, hamisha mundin yel borur. Xo'jandgakim g'arbidur, doyim mundin yel kelur: tund yellari bor. Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund yelga yo'luqub, bir-birini topolmay, «Ho, darvesh», «Xo, darvesh», dey-dey xalok bulubturlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar.

Sayxun suyining shimoli tarafidari qasabalar biri Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitirlar. Nechukkim, Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar¹⁸. Farg'onada, Andijondin so'ngra mundin ulug'roq qasaba yuqtur. Andijondin g'arb sori tuqquz yig'och yo'ldur. Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi, Sayxun daryosi ko'rg'onining ostidin oqar. Qo'rg'oni baland jar ustida voqe bo'lubtur. Xandakining o'rniga amik jarlardur. Umarshayx mirzokim, muni poytaxt qildi, bir-ikki martaba tashkarroqdin yana jarlar soldi. Farg'onada muncha berk qo'rg'on yo'qtur. Maxalloti qo'rg'ondin bir shar'iy yiroqroq tushubtur. «Dex kujovu daraxton kujo» masalini g'olibo Axsi uchun aytibturlar. Kovuni yaxshi bo'lur. Bir navi kovundurkim, «Mir Temuriy» derlar, andoq qovun ma'lum emaskim olamda bo'lg'ay. Buxoro qovuni mashhurdur. Samarqandni olg'on mahalda Axsidin, Buxorodin qovun kelturub bir majlisda kesturdum, Axsi qovunining hech nisbati yo'q erdi.

¹⁸ Bobur Z.M. "Boburnoma". T., "Yulduzcha", 1989, 69-bet.

Ovi qushi biser yaxshi bo'lur. Sayxun daryosining Aysi tarafi dashttur. Oq kiyigi bisyor bo'lur. Andijon tarafi jangaldur. Burumarl, qirg'ovul va tovushqoni ko'p topilur, asru semiz bo'lur.

Yana bir Kosondur. Axsining shimolida tushubtur. Kichikroq qasabadur. Nechukkim Andijon suyi O'shdin kelur, Aysi suyi Kosondin kelur. Yaxshi xavolik yerdur. Safolik borchalari bor. Vale safolik. borchalari tamom soy yoqasida voqe bo'lg'on uchun, «pustini pesh, berra» debturlar. Safo va havoda Ush bila Koson elining taassubi bor.

Farg'ona viloyatining girdo-girdi tog'larida yaxshi yayloqlari bor. Tobulru yirochi bu tog'larda bor, uzga hech yerda bo'lmas. Tobulru bir yirochedur, po'sti qizil, aso qilurlar, qamchi dastasi ham qilurlar, qushlarga qafas qilurlar, tarosh qilib tirk'az qilurlar, xeyli yaxshi yig'ochdur. Tabarrukluk bila yiroq yerlarga eltarlar.

Tarixdan ma'lumki, Bobur Mirzo bobokaloni Amir Temur poytaxti Samarqand shahrini uch marta egallagan. Lekin, siyosiy voqealar natijasida poytaxt shaharni tashlab chiqishga majbur bo'lgan. "Boburnoma"da Samarqand shahri va viloyati haqida quyidagicha ma'lumotlar berilgan:

Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamrokdur. Beshinchi iqlimdindur. Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar¹⁹. Hech yog'iy qaxr va g'alaba bila mung'a dast toimaron uchun baldai mahfuza derlar. Samarqand xazrati amirulmu'minin Usmon zamonida musulmon bo'lg'ondur. Sahobadin Qusam ibn Abbos anda borg'ondur. Qabri Ohanin darvozasining toshidadur. Holo mazori Shohrax mashhurdur Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mug'ul va turk ulusi Semirqand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug'

¹⁹ Bobur Z.M. "Boburnoma". T., "Yulduzcha", 1989, 71-bet.

podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emastur, Qo'rg'onini faslning ustidin buyurdumkim, qadam urdilar. O'n ming olti yuz qadam chiqti.

Eli tamom sunniy va pok mazxab va mutasharri' va mutadayyin eldur. Hazrati risolat zamonidin beri ul miqdor aimmai islomkim, Movarounnahrdin paydo bo'lubtur, hech viloyattin ma'lum emaskim, muncha paydo bo'lmush bo'lg'ay. Shayx Abumansurkim aimmai kalomdindur. Samarqandning Motrid otliq mahallasidindur. Aimmai kalom ikki firqadur, birni motridiya derlar, birni ash'ariya derlar. Motridiya Shayx Abumansurga mansubdur. Yana soxibi «Saxixi Buxoriy» Xoja Ismoil Hartang ham Movarounnahrdindur. Yana sohibi «Hidoya»kim, Imom Abu Hanifa mazxabida «Hidoya»din mu'tabarroq kitobi fikx kam bo'lg'oy, Farg'onaning Marg'inon otliq viloyatidindur, ul ham doxili Movarounnahrdur. Ma'muraning kanorasida voqe bo'lubtur. Sharqi Farg'ona va Qoshg'ar, g'arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shoxruxiyakim Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Tirmiz, Kuxak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki gurux bo'lg'ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur, Ko'xak derlar. By rud muning tubidin oqar uchun Kuxak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug' rud ayiribturlar, balki daryochadur, Darg'am suyi derlar. Samarqandning janubidin oqar, Samarqanddin bir shar'iy bulg'oy. Samarqandning bag'ot va maxalloti va yana necha tumonoti bu suv bila ma'murdur. Buxoro va Qora qumgachakim, uttuz-qirk yiroq, yo'lg'a yovuqlashur, Kuxak suyi bila ma'mur va mazru'dur. Mundoq ulug' daryo aslo ziroattin va imoratgin ortmas, balki yozlar uch-to'rt oy Buxorog'a suv yetmas. Uzumi va qovuni va olmasi va anori, balki jami' mevasi xub bo'lur. Vale ikki meva Samarqanddin mashhurdur: sebi Samarqand va soxibiyi Samarqand. Qishi maxkam sovuqtur, qori agarchi Qobul qoricha tushmas. Yozlar yaxshi xavosi bor, agarchi Qobulcha yo'qtur.

Temurbekning va Ulug'bek mirzoning imoroti va bag'oti Samarqand maxallotida ko'ptur. Samarqand arkida Temurbek bir ulug' ko'shk solibtur, to'rt oshyonliq Kuk saroyg'a mavsum va mashhur va bisyor oliy imorattur. Yana Oxanin darvozasiga yovuq qal'anint ichida bir masjidi jum'a solibtur, sangin, aksar Hindustondin eltgan sangtaroshlar anda ish qilibturlar. Masjidning peshtoqi kitobasida bu oyatni «Va iz yarfau Ibroximal-kavoida (ilo oxirixi)» andoq ulug' xat bila bitibturlarkim, bir kurux yovuq yerdin o'qusa bo'lur. Bu ham bisyor oliy imorattur. Samarqandning sharqida ikki bor solibtur, birikim yiroqroqtur, Bori Buldudur, yovuqrog'i bori Dilkushodur. Andin Feruza darvozasiracha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yig'ochlari ekturubtur. Dilkushoda ham ulug' ko'shk soldurubtur, ul ko'shkta Temurbekning Hinduston urushini tasvir qilibturlar. Yana Pushtai Ko'xakning domanasida Konigilning qora suyining ustidakim, bu suvni Obiraxmat derlar, bir bor solibtur. Naqshi jahong'a mavsum. Men ko'rgan mahalda bu bor buzulub erdi, oti besh qolmaydur edi. Yana Samarqandning janubida bog'i Chanordur, kal'ag'a yovuqtur. Yana Samarqandning quyi yonida bog'i Shamol va Bog'i Bixishttur. Temurbekning nabirasi Jahongir mirzoning o'g'li Muhammad Sulton mirzo Samarqandning tosh qo'rg'onida — Chakarda bir Madrasa solibtur²⁰.

Temurbekning qabri va avlodidin har kimki Samarqandga podshoxlik qilibtur alarning qabri ul madrasadadur.

Ulug'bek mirzoning imoratlariyin Samarqand qal'asining ichida Madrasa va xonaqohdur. Xonakohning gunbazi biser ulug' gunbazdur, olamda oncha ulug' gunbaz yo'q deb nishon berurlar. Yana ushbu Madrasa va xonaqoxga yovuk bir yaxshi hammom solibtur, Mirzo hammomiga mashhurdur har nav' toshlardin farshlar qilibtur. Xuroson va Samarqandga oncha hammom ma'lum emaskim, bo'lg'ay. Yana bu

²⁰ Ahmedov B. "Tarixdan saboqlar". T., "O'qituvchi", 1994, 49-bet.

madrasaning janubida bir masjid solibtur, masjidi Mukatta' derlar. Bu jihattin Mukatta' derlarkim, qit'a-qit'a yig'ochlarni tarosh qilib, islimiy va xitoiy naqshlar solibturlar, tamom devorlari va sakfi ushbu yo'luqtur. Bu masjidning qiblasini bila Madrasa qiblasining orasida biser tafovuttur. Rolibo bu masjid qiblasining samti munajjim tariyki bila amal qilibturlar. Yana bir oliy imorati Pushtai domanasida rasaddurkim, zich bitmakning olatidur. Uch oshyonlikdur Ulug'bek mirzo bu rasad bila Zichi Ko'ragoniyni bitib-turkim, olamda xolo bu zich musta'maldur. O'zga zich bila kam amal qilurlar. Mundin burun Zichi Elxoniy musta'mal edikim, Xoja Nasir Tusiy Halokuxon zamonida Marogada rasad borlatibtur. Xalokuxondurkim, Elxon ham derlar. Yeolib olanda yetti-sekkiz rasad besh boglamaydurlar. Ul jumladin bir, Ma'mun halifa rasad borlabturkim, Zichi Ma'muniyni andin bitibturlar. Bir Batlimus ham rasad borlabtur. Yana bir Hindustonda roja Bik-ramojit xindu zamonida Ujnk va Daxordako'm, Molva mulkidur, xolo Mandura mashhurdur. Yana bir rasad qilibturlar, xolo xindu larning musta'mal Hindustonda ul zichdur. Bu rasadni bor-lagoni ming besh yuz sekson to'rt yildur. Bu ul zichlarra boka noqisroqtur²¹.

Yana pushtai Kuxakning domanasida rarb sari bore solibtur, bori Maydonga mavsum. Bu borning O'rtasida bir oliy imorat qilibtur. Chilsutun derlar, du oshyona, sutunlari tamom toshdin. By imoratning to'rt burchida to'rt manordek burjlar kuoribtur-larkim, yukkorira chikar yo'llar bu to'rt burjdindur. O'zga tamom yerlarda toshdin sutunlardur. Ba'zini morpech xiyora qilibturlar. Yukkoriri oshyonining to'rt tarafi ayvondur, sutunlari toshdin. O'rtasi chordara uydur. Imorat kursisini tamom toshdin farsh qilibturlar. Bu imoratgin pushtai Kuxak sari domanada yana bir bogcha solibtur, anda bir ulur ayvon imorat qilibtur, ayvonning ichida bir ulug' tosh taxt qilibtur, turli taxminan un to'rt-u n besh kari bo'lg'oy, arzi yetti-sekkiz

²¹ Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T., "Yozuvchi", 1995, 92-93-94.

kari, umki bir kari. Mundok ulur toshni xeyli yirok yo'ldin kelturubturlar. O'rtasida darz bulubtur. Derlarkim, ushbu yerda keltirgandin so'ng bu darz bo'lrondur. Ushbu borchada yana bir chordara solibtur, izorasi tamom chiniy. Chiniyxona derlar. Xitoydin kishi yiborib kelturubtur.

Samarqandning kal'asining ichida yana bir kadimiy imorattur, masjidi Laklaka derlar. Ul gunbazning o'rtasida yerga tensalar tamom gunbazdii laklak un kelur, g'arib amerdur hech kim muning sirrini bilmas. Sulton Ahmad mirzoning zamonida ham bek va bekot qalin bog' va bog'cha soldilar. Ul jumladin, Darvesh Muhammad tarxonning chorboricha safolik. va xavolik va maddi nazarlik chorbog' kam bo'lg'ay. Bori Maydondin quyiyoq balandining ustida Kulba ulangiga mushrif bir chorbor solibtur, tamom bu ulang oyor ostidadur. Chorboarda ham martaba-martaba yerlarni siyox bila tuzatib, yaxshi karvonlar va sarv va safedorlar tikibturlar, xeyli saromad manziledur. Aybi budurkim ulug' suyi yo'qtur.

Samarqand shahari ajab orosta shahardur, bu shaharda bir xususiyati borkim, o'zga kam shaharda andoq bo'lg'ay. Har xirfagarning bir boshqa bozori bor, bir-birlariga maxlut emastur, tavr rasmedur. Xub nonvoliklari va oshpazliklari bordur. Olamda yaxshi kogaz Samarqanddin chikar, Juvozi korazlar suyi tamom Konigildin keladur. Konigil Siyoxrbyokasidadurkim, bu kora suvni Obiraxmat ham derlar.

Samarqandning yana bir matoi kirmizi maxmaldurkim, atrof va javonibka eltarlar. Girdo-girdida yaxshi ulanglari bor. Bir mashhur ulang Konigil ulangidur. Samarqand shaharidin sharq tarafidadur, bir nima shimolga moyil, bir shar'iy bulgoy. Kora suvkim, Obiraxmat ham derlar. Konigilning O'rtasidin okar, yetti-sekkiz tegirmon suyi bulgoy. Bu suvning atrofi tamom obgirdur. Ba'zi derlarkim, bu ulangning asli oti Koni obgir ekanur, vale tarixlarda tamom Konigil bitirlar, xeyle yaxshi ulangdur. Samarqandning salotini hamisha bu ulangni kuruk kilurlar. Har yil bu

ulangga chiqib bir oy, ikki oy ultururlar. Bu ulangdin yukkorrok sharqi janub sari yana bir ulang voqe bo'lubtur: Xon yurtig'a mavsum. Samarqandning sharqidur. Samarqanddin bir yig'och bo'lg'ay. Bu qora suv aning orasi bila o'tub, Konigil borur. Xon yurtida bu qora suv andoq yuqqoridin evrulub kelibturkim, ichida bir urdu tushguncha yer bulgay. Chikar yeri xeyli tor voke bulubtur. Bu yerning sirfasini ko'zlab, Samarqand muxosarasida necha maxal munda ulturulub edi. Yana bir ulang Budana kururidur. Dilkusho bogi bila Samarqand orasida voke bulubtur. Yana bir Kuli marok ulangidur, Samarqandtin ikki sha'riga yovushkay, rarb saridur, bir nima shimolg'a moyil. Bu ham tavr ulangedur. Bir yonida bir ulur kul voke bulubtur, bu jihattin kuli Marok ulangi derlar. Samarqand muxosarasida men xon yurtida ulturgonda bu ulangda Sulton Ali mirzo ulturub edi. Yana bir Kulba ulangidur, bu muxtasarrok ulangdur. Shimoli Kulba kenti va Kuxak daryosi, janubi Bori Maydon va Darvesh Muhammad tarxonning chorbori, sharqi Pushtai Kuxak. Yaxshi viloyoti va tumonoti bor. Ulug' viloyatikim, Samarqand karinasidur, Buxorodur. Samarqandning g'arbiy tarafi yigirma besh yiroq yo'ldur. Buxoroning ham necha tumonoti bor. Tavr shahare voqe bulubtur. Mevasi ko'p bo'lur va xub bo'lur, qovuni bisyor yaxshi bo'lur; Movarounnahrda Buxoro qovunicha ko'p va xub qovun bo'lmas. Agarchi Farg'ona viloyatidin Axsining bir nav' kvunikim, «mir temuriy» derlar, muning qovunidin chuchukroq va nozukroq bo'lur, vale Buxoroda har jins kovundin ko'p bo'lur va yaxshi bo'lur. Yana «oluyi buxoriy» mashhurdur. Buxoro olusidek hech yerda bo'lmas, terisini suyub qrutub tabarrukluk bila viloyattin viloyatka eltarlar. Talyin uchun bisyor yaxshi tadovidur. Parvori tovuri va qozi bisyor bo'lur, Movarounnahrda Buxoro chog'irlaridin tundrok chorir bo'lmas. Men Samarqandga avval ichganda Buxoro chog'irlarini ichar edim.

“Boburnoma”da Kesh, Qarshi, Xuzor, Karmana, Qorako’l viloyatlari haqida mufasssal ma’lumotlar berilgan:

Yana Kesh viloyatidur. Samarqandning janubidadur, to’qqiz yig’och yo’ldur. Samarqand bila Kesh orasida bir tog’ tushubtur. Itmak doboni derlar, sangtaroshlik qilur toshlarni tamom bu tog’din eltarlar. Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xub sabz bo’lur uchun Shaharsabz ham derlar. Temurbekning zodu budi Keshdin uchun, shahr va poytaxt qilurig’a ko’p sa’y va extimomlar kildi, oliy imoratlar Keshta bino qildi. O’ziga devon o’lturur uchun bir ulug’ peshtoq va yana o’ng yonida va sul yonida tavochi beklari bila devon beklari ulturub devon so’rar uchun, ikki kichiqroq peshtoq qilibtur. Yana savrun eli o’lturur uchun bu devonxonaning har zil’ida kichik-kichik toqchalar qilibtur, muncha oliy toq olamda kam nishon berurlar. Derlarkim, Kisro toqidin bu biyikraktur. Yana Keshda Madrasa va maqbara qilibtur. Jahongir mirzo va yana ba’zi avlodining maqobiri andadur. Chun Keshning qobiliyati shahr bulmoqqa Samarqandcha emas edi, oxir poytaxt uchun Temurbek Samarqandni o’q ixtiyor kildi²².

Yana Qarshi viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar, Qarshi mo’gulcha ottur, go’rxonani mo’g’ul tili bila qarshi derlar. G’olibu bu ot Chingiz xon tasallutidin so’ng bo’lg’ondur. Kam obroq yerdur, bahori xub bo’lur, ekini va qovuni yaxshi bo’lur. Samarqandtin janub saridur, bir nima g’arbka moyil, un sekkiz yig’och yo’ldur. Vag’riqaro yo’sunliq qushkina bo’lurkim, qilquyruq derlar. Qarshi viloyatida behad va benihoyat bo’lur uchun ul navohida murg’aki qarshi derlar.

Yana Huzor viloyatidur. Yana Karmina viloyatidur. Samarqand bila Buxoro orasidadur. Yana Qorako’l viloyatidur. Borchadin poyon obroqdur. Buxorodin yetti yig’och g’arb shimoliydur. Yaxshi tumonoti bor. Ul jumladin, So’g’d tumani va So’g’dga payvast tumanlardur. Boshi Yor

²² Bobur Z.M. “Boburnoma”. T., “Yulduzcha”, 1989, 70-bet.

yayloq oyog'i Buxoro, bir yig'och yo'l yo'qturkim, kent va ma'mura bo'lmag'ay. Andoq mashhurdurkim, Temurbek degandurkim: mening bir bog'im borkim, tuli o'ttuz yirochtur. Bu tumonotni degandur.

Yana Shovdor tumanidur. Shahar va maxallotka payvastur. Xeyli yaxshi tumandur. Vir tarafi Samarqand bila Shaharsabz orasidari tog' voqe bo'lubtur, kentlari aksar bu tog'ning domanasida tushubtur. Yana bir tarafi Ko'xak daryosidur, xushxavo va po'rsafo, suyi farovon, ne'mati arzon, xeyli yaxshi tuman tushubtur. Misr va Shom ko'rgan ravandalar muncha chorliq yer nishon bermaydurlar. Agarchi yana tumanlari ham bor, bu mazkur bulg'onlarcha emas. Ush-muncha bila iktifo qilindi.

Bobur Mirzo Shayboniixonidan mag'lubiyatga uchrab, Ilono'tdi darvozasidan o'tib, Jizzax shahriga kelganligi haqida ham muhim ma'lumotlar bor. "Boburnoma"da Jizzax shahri, shaharning xokimi, Jizzaxda yetishtirilgan shirin qovun va uzumlar haqida ma'lumot berilgan:

Kech namozi digar Ilon o'tida tushub, ot o'lturub etini shishlab, kabob qilib, otni laxza tindurub otlanduk. Tongdin burunrok Haliliya kentiga kelib tushtuk. Haliliyadin Dizak kelildi, ul fursatta Dizakta Hofiz Muhammadbek do'ldoyning o'g'li Tohir do'ldoy edi. Semiz etlar va mayda etmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon. Andoq usrattin mundoq arzonliq va andoq baliyattin mundoq amonlikka kelduk²³:

Vahmu usrattin amone toptuq

Yangi jon toza jahone toptuq.

O'lum dag'dag'asi xotirdin raf' bo'lib, ochlik shiddati eldin daf' bo'ldi. Umrumizda muncha farog'at qilmaydur eduk. Muddatul-umr amonlig' va arzonlig' qadrini muncha bilmaydur eduk. Ishrat usrattin so'ng farog'at mashaqqattin keyin lazzatliroq va yaxshiroq ko'runur. To'rt-besh navbat

²³ Bobur Z.M. "Boburnoma". T., "Yulduzcha", 1989, 72-bet.

ushmundoq shiddattin rohatg'a va mashaqqattin farog'atqa muntaqil bo'lubtur. Avvalgi navbat bu edi. Mundoq dushman balosidin va ochlik ibtilosidin halos bo'lub, amonlig' roxatig'a va arzonlir farog'atig'a yetushtuk. Uch-to'rt kun Dizakta istiroxat qilduk.

Andin so'ng Uratepa sari azimat qilduk. Pashog'ar bir nima yo'ldin qaqasroqtur, chun muddati anda bo'lub edim, o'tub borurda, borib ani sayr qildim. Pashog'arning qo'rg'onida otun kim, muddati madid mening onam xoning'a mulozamat qilur edi, bu navbat uloqsizliktin Samarqandga qolib edi, uchray tushti, ko'rushtum, so'rdum. Samarqanddin bu yerga yayov kelibtur. Mening onam xonimning singli Xub Nigorxonim olami foniyni vido' qilg'on ekandur. O'ratepada xoning'a va menga eshitturdilar. Mening otamning onasi ham Andijonda vafot qilg'on ekandur, ani ham munda eshitturdilar.

Xonim xon bobom shunqor bo'lg'oli onalari, inilari, singillarinikim, Shohbegim va Sulton Mahmudxon va Nigorxonim va Davlat Sultonxonim bulg'aylar, ko'rmaydurlar edi. Mufoqat imtidodi o'n uch-o'n to'rt yilga tortib edi, tuqqonlarni ko'rgali Toshkandg'a mutavajjix bo'ldilar.

2.2. «Boburnoma»da tarixiy shaxslar tasnifi

«Boburnoma»da keltirilgan barcha ma'lumotlar, xususan Farg'ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag'oniyon va Shimoliy Afg'onistonning XV asrning 80—90-yillari va XVI asr 1-choragidagi siyosiy ahvoliga doir habarlar o'zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi. Shuningdeq asar muallifning muayyan tarixiy voqea haqida hamda o'zaro dushmanlik qilgan temuriylar — Umarshayh Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysung'ur Mirzo, Sulton Husayn va boshqalarning xulq-atvori, tabiati hususida bildirgan fikr-mulohazalari bilan ham ahamiyatlidir.

Boburnomada Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Ohiy, Muhammad Solih kabi o'nlab ijodkorlar, Xoja Abdullo Marvari, Qul Muhammad Udiy, Shayx Noyiy, Yusuf Ali, Mullo Yoraq Shohquli G'ijakiy, Husayn Udiy, Behzod, Shoh Muzaffar kabi ko'plab san'atkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatlariga xolis baho beriladi.

Bobur Mirzo otasi Umarshayx Mirzo, uning nasl-nasabi haqida quyidagicha ma'lumotlarni yozib qoldirgan:

Chun Umarshayx mirzo baland ximmatlik va ulug' doiyalik podshoh erdi. Hamisha mulkgirlik dag'dag'asi bor erdi, necha navbat Samarqand ustiga cherik tortti, ba'zi maxal shikast topti, ba'zi maxal bemurod yondi. Necha navbat qoyin otasi Yunusxonnikim, Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon naslidindur, Chig'atoyxonning yurtida mug'ul ulusining xoni ul fursatta ul erdikim, mening ulug' otam bo'lg'ay, istid'o qilib kelturdi. Har qatla kelturganda viloyatlar berur erdi. Chun Umarshayx mirzoning muddaosidek bo'lmas erdi, goxi Umarshayx mirzoning badmaoshlig'idin, goxi mug'ul ulusining muxolafatidin viloyatga tura olmay yana Mug'ulistonga chiqar erdi.

Oxir navbat kelaturgandakim, ul fursatga Toshkand viloyati Umarshayx mirzo tasarrufida edikim, kitoblarda Shosh bitirlar, ba'zi Choch bitirlarkim, «kamoni chochiy» andin iborattur, berdi. O'shal fursattin tarix to'qquz yuz sekkizgacha Toshkand va Shoxruxiya viloyati Chig'atoy xonlarining tasarrufida edi. Bu fursatga mug'ul ulusining xon va sultonlig'i Yunusxonning ulug' o'g'li — mening tog'oyim Sulton Mahmudxonda edi, Umarshayx mirzoning og'asi Samarqand podshoxi Sulton Ahmad mirzo va mug'ul ulusining xoni Sulton Mahmudxon chun Umarshayx mirzoning badmaoshlig'idin mutazarrir edilar, bir-birlari bila ittifoq qilib, Sulton Ahmad mirzo Sulton Mahmudxonni kuyov qilib, mazkur bo'lg'on tarixda Xujand

suyining janub jonibidin Sulton Ahmad mirzo va shimol tarafidin Sulton Mahmudxon Umarshayx mirzoning ustig'a cherik torttilar.

Bu asnoda g'arib voqea dast berdi, mazkur bo'lub edikim, Axxi qo'rg'oni baland, jar ustida voqe bulubtur, imoratlar jar yoqasida erdi. Ushbu tarixda do'shanba kuni ramazon oyining to'rtida Umarshayx mirzo jadin kabutar va kabutarxona bila uchub, shunqor bo'ldi. O'ttuz to'qquz yoshar erdi.

Valodat va nasabi: sekkiz yuz oltmishda Samarqandda edi. Sulton Abusaid mirzoning to'rtunchi o'g'li edi. Sulton Ahmad mirzo, Sulton Muhammad mirzo Sulton Mahmud mirzodin kichik edi. Sulton Abusaid mirzo Sulyun Muhammad mirzoning o'g'li edi. Sulton Muhammad mirzo Mironshox mirzoning o'g'li edi. Mironshox mirzo Temurbekning uchunchi o'g'li edi. Umarshayx mirzo bila Jahongir mirzodin kichik. Shoxruh mirzodin ulug' edi.

Sulton Abusaid mirzo avval Qobulni Umarshayx mirzora berib, Bobon Qobuliyini bek atka qilib, ruxsat berib edi. Mirzolari sunnat qilur tuyi jihatdin Darai Gazdin yondurub, Samarqand eltti. To'ydin so'ngra ul munosabat bilakim, Temurbek ulug' Umarshayx mirzora Farg'ona viloyatini bergandur. Andijon viloyatini berib, Xudoyberdi Tug'chi Temurtoshni bek atka qilib yibordi²⁴.

Shakl va shamoyili: past buyluq tegirma soqolliq quba yuzluq tanbal kishi edi. Tunni bisyor tor kiyar edi, andog'kim, bog' bog'laturda qornini ichiga tortib bog'latur edi, bog' borlagondin so'ng o'zini qo'ya bersa, biser bo'lur edikim, bog'lari uzulur edi. Kiymokta va yemokta betakalluf edi. Dastorni dastorpech chirmar edi. Ul zamonda dastorlar tamom chorpech edi, bechin chirmab, aloka qo'yar edilar. Yozlar rayri devonda aksar mug'uliy burk kiyar edi.

²⁴ Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T., "Yozuvchi", 1995, 94-6et.

Ahloq va atvori: xanafiy mazxabliq pokiza e'tifodlik kishi edi, besh vaft namozni tark filmas edi, umriy qazolarini tamom qilib edi, aksar tilovat qilur edi. Hazrat Xoja Ubaydullog'a ibodati bor erdi, suhbatlariga bisyor mo'sharraf bo'lub edi. Xazrat Xoja ham farzand deb erdilar.

Bobur Mirzo onasi Qutlug' Nigorxonim va opasi Xonzodabegim haqida quyidagicha ma'lumotlar bergan:

Avlodi: uch o'g'ul, besh qiz mirzodin qolib edi. Bori o'g'lonlaridin ulug', men — Zahiriddin Muhammad Bobur edim; mening onam Qutlug' Nigorxonim edi. Yana bir o'g'ul Jahongir mirzo edi, mendin ikki yosh kichik edi, aning onasi mug'ulning tuman beklaridin edi, Fotima Sulton otliq Yana bir o'g'ul Nosir mirzo edi, onasi andijonlik edi, g'unchachi edi, Umid otliq Mendin to'rt yosh kichik edi²⁵.

Bori qizlaridin ulug' Xonzodabegim edi, mening bila bir tuqqon erdi, mendin besh yosh ulug' erdi. Men Samarqandni ikkinchi navbat olg'onda, bovujudkim, Shayboniixondek kishi birla Saripulda chiqib urushub, onchakim imkoni bor edi sa'y va ehtimoldin taqsir qilmaduq nechukkim mahallida mazkur bo'lg'usidur, shikast topib kelib, besh oy qal'adorlik qildim, qal'adorlik zabti va istehkomi va sardorlikda ta'sir bo'lmadi. Atrof va javonibdagi podshoxlar va beklardin hech nav' madad va muovanat bo'lmadi, ma'yus bo'lub solib chiqtim.

Ul fatarotta Xonzodabegim Muhammad Shayboniixoniga tushub edi, bir o'g'ul bulub erdi. Xurramshox otliq maqbul o'g'lon edi. Balx viloyatini anga berib edi, otasi o'lgandin bir-ikki yil so'ngra tengri raxmatiga bordi. Shox Ismoil uzbekni Marvda bosqonda Xonzodabegim Marvda edi. Mening jixatimdin yaxshi ko'rub, andin uzattilar, Qunduzda kelib menga qotildilar. Muforaqat imtidodi o'n yil bo'lub edi. Men va Muhammadiy ko'kaltosh ikov kelduq begim va begimning yovug'idag'ilar tanimadilar. Bovujudkim,

²⁵ Bobur Z.M. "Boburnoma". T., "Yulduzcha", 1989, 74-bet.

otimni aytim ham, muddatin so'ngra tanidilar.

Yana bir qiz Mexrbonubegim erdi. Nosir mirzo bila bir tuqqon erdi, mendin ikki yosh ulug' erdi.

Yana bir qiz Shaxrbonubegim erdi, bu dag'i Nosir mirzo bila bir tuqqon erdi, mendin sekkiz yosh kichik edi.

Yana bir qiz Yodgor Sultonbegim edi, onasi Og'a sulton otliq g'unchachi edi. Yana bir qiz Ruqiya Sultonbegim edi, onasi Mahdum Sultonbegim edi. Qorakuzbegim derlar edi, ikkalasi mirzoning favtidin so'ng bo'ldilar. Yodgor Sultonbegimni mening ulug' onam Esan Davlatbegim saxlab edi. Andijon va Axsini Shayboniyxon olg'onda Yodgor Sultonbegim Hamza Sultonning Abdullatif Sulton otliq o'g'liga tushib edi. Men Hamza Sulton boshliq sultonlarni Xatlon viloyatida bosib, Xisorni olg'onda menga qotildi. Ushul fatarotta Ruqiya Sultonbegim Jonibek Sultong'a tushub edi, bir-ikki o'g'li bo'lib erdi turmadi. Bu fursatlarda habar keldikim, tengri rahmatira boribtur.

Havotun va sarori: Kutlug' Nigorxonim edi, Yunusxong'-ning ikkinchi qizi, Sulton Mahmudxon, Sulton Ahmadxonning egachisi edi.

Yunusxon Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonning naslidindur. Yunusxon ibn Vaysxon ibn Sherali O'g'lon ibn Muhammadxon ibn Xizr Xojahon ibn To'g'luq Temurxon ibn Esan Bug'axon ibn Duvaxon ibn Baroqxon ibn Yesun Tuva ibn Mutugon ibn Chirag'oyxon ibn Chingizxon.

Chun muncha taqrib bo'ldi, xonlarning ahvolini dag'i ijmol bila zikr qilaling'. Yunusxon va Esan Bug'axon Vaysxonning o'g'lonlari edi. Yunusxon o'g'lonlari Ofoqxon va Jonboboxon edi. Yunusxonning onasi Turkistonliq qipchoq beklaridin Temurbek rioyat qilg'on shayx Nuriddinbekning qizi yo nabirasi bo'lur.

“Boburnoma” asarida temuriy shahzoda Husayn Boyqaro, uning o’g’li Badiuzzamon va buyuk mutafakkir Alisher Navoiy haqida ham qimmatli ma’lumotlar berilgan Jumladan: Alisher Navoiy haqida asarda shunday deyiladi: **«Alisherbek naziri yo’q kishi edi. Turkiy til bila to she’r aytibturlar,— hech kim oncha ko’p va xo’b aytqon emas».**

Husayn Boyqaro va uning o’g’li Badiuzzamon haqida quyidagi ma’lumotlar berilgan:

Ushbu yil Sulton Xusayn mirzo bila Badiuzzamon mirzo orasidag’i navkarlar urushg’a tortti. Tafsili budurkim, utgan yil Balxni va Astrabodni Badiuzzamon mirzog’a va Muzaffar mirzog’a berib, yukundurub edilarkim, nechuk mazkur bo’ldi, o’shal muddatdin bu muddatkacha g’alaba elchilar bordilar va keldilar²⁶.

Oxir Alisherbek ham elchilikka keldi. Harchand sa’y qildilar, Astrobodni inisiga bermakka rizo bo’lmadi. Dedikim, mening o’g’lum Muhammad Mo’min mirzoni xatna qilg’onda mirzo anga bog’ishlabtur.

Bir kun Alisherbek bila mirzoning orasida bir suxbate o’ttikim, mirzoning tez faxmlirig’a va Alisherbekning diqqati qalbig’a doldur. Alisherbek sirriy so’zlarni mirzog’a go’shaki g’alaba aytti. Dog’i dedikim:— Bu so’zlarni unutung— Mirzo filxol ayttikim:— Qaysi so’zlarni?— Alisherbek bisyor mutaassir bo’lub ko’p yig’ladi.

Boburning o’z guvohligiga ko’ra, shoir sifatida ijodiy faoliyati Samarqandni ikkinchi marta egallagan vaqtda boshlangan; «Ul fursatlarda biror-ikkirar bayt aytur edim», deb yozadi u. Samarqanddaligining ilk oylarida Alisher Navoiy tashabbusi bilan ular o’rtasida yozishma boshlanadi. Boburmirzo atrofida ijodkorlar to’plana boshlashi ham shu yillarga to’g’ri keladi. Jumladan, Binoiy, Abulbaraka va Boburmirzo o’rtasidagi ruboiy mushoirasi Samarqanddagi qizg’in adabiy hayotdan darak beradi. Umuman,

²⁶ Bobur Z.M. “Boburnoma”. T., “Yulduzcha”, 1989, 74-bet.

davlat arbobi va ko'p vaqti jangu jadallarda o'tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg'in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va xatarli sharoitda qolgan chog'larida ham Boburmirzo ijodiy ishga vaqt topa bilgan, ilm, san'at va ijod ahlini o'z atrofiga to'plab, homiylik qilgan, ularni rag'batlantirgan.

O'tmish adabiyot va tarix musiqa va san'atdan yaxshi habardor bo'lgan, diniy ta'limotga chin ixlos qo'ygan Boburmirzo har doim olimu fozillar davrasida bo'ldi, xususan ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko'rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirib turdi. Ijod va san'at ahliga bunday mehrli munosabat aslo bejiz bo'lmagan. Boburmirzo tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug'ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to'xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

III-Bob: “Z.M.Boburning “Boburnoma” asari O’rta Osiyo xalqlari tarixi va geografiyasini o’rganishda muhim manba” mavzusini darslarda o’quvchilarga o’rgatish.

(Yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish)

Respublikamizda ta’lim-tarbiya tizimidagi islohatlar tizimini tubdan o’zgartirish, uni ilmiy ruh bilan sug’orish, samarali an’anaviy uslublarni saqlab qolgan holda yangilarni yaratish va amalda qo’llash borasida olib borilayotgan ishlar bilan bog’liqdir. Ta’lim sohasidagi eng muhim bo’lib O’zbekistonda “Umumiy o’rta ta’lim, davlat ta’lim standartlari” hukumatimiz tomonidan tasdiqlandi. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to’g’risida”gi qonunlari qabul qilindi.

Bu qonunlarda har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlash va kelajak avlodga yangi pedagogik texnologiyalarga asoslanib dars o’qitishni ta’minlashni belgilab beradi. Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy Majlis IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishda asosi vazifa qilib “Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o’z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta’minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur”²⁷ligini belgilab berdi.

Bu Milliy dasturning ikkinchi (2001-2005) va uchinchi bosqichda (2005) “Ta’lim muassasalarini moddiy texnika va axborot bazasini mustaxkamlash davom ettiriladi, o’quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o’quv adabiyotlari va ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlanadi” deyilgan.²⁸

Pedagogik texnologiya nima?

Texnologiya so’zi yunoncha –“techre” san’at va mahorat, “logos” – ta’limot, fan so’zlaridan tashkil topib, bu so’z fanga 1872 yilda kirib

²⁷ И.А.Каримов. Баркамол авлод Ўзбекистон келажигининг пойдевори. Т.1997, 36-бет.

²⁸ Таълим тўғрисидаги қонун. Т, 1997 йил.

kelgan. lekin ba'zilarida bilan metodika aynan bir xil tushuncha ham yo'q emas. Bular o'rtasidagi farqni aniqlaydigan bo'lsaq metodika 2xil ma'noda ta'riflanadi,²⁹ yana bir tomondan metodikaga fan sifatida qaralsa, ikkinchi tomondan, metodikaga metod va usullarning majmui sifatida qaraladi. Metodikada bir xil mazmundagi uslub va usullar qo'llanadi. Pedagogik texnologiyada esa turli xil vosita va usullardan foydalanishni taqozo etadi. Demak texnologiya kengroq tushuncha ekan, chunki texnologiya metodikadan butunlay farq qilgan holda, faqat bilim berish emas, balki aniq maqsad natijaga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni hamdir. Ta'lim berayotgan o'qituvchining shaxsiy mahorati va harakteri metodikada aks etadi. Texnologiya esa qanday qilib, qaysi usul va vositalar bilan o'qitilsa, yaxshi natija berishini ko'rsatadi.

Pedagogikadan bizga ma'lum, sinf dars sistemasida o'qitishning an'anaviy va noan'anaviy usullari mavjud. Hozirgi kunda Respublikamizning ko'pchilik manbalarida avvaldan amalda bo'lgan tarixni an'anaviy usulidan foydalanib, o'qitish asoslari XVII asrda vujudga kelgan. Bu usul ta'lim tarbiyani bir xil qolipda, chetga chiqmasdan olib borishni taqozo etadi. An'anaviy dars usuli o'zining qo'yidagi belgilariga ega.³⁰

O'quvchilar maktabga qadam qo'yganlarida bir xil yoshda taxminan bir xil tayyorgarlikka ega:

O'quvchilardan tarkib topgan sinf maktabni bitirgunga qadar saqlanib qoladi.

O'quvchilar oldindan tasdiqlangan yagona o'quv rejasi va dasturlari asosida belgilangan o'quv yilida va shunga ko'ra kunning ma'lum vaqtida o'qishga keladilar;

Mashg'ulotlar dars sifatida olib borilib, unda ma'lum mavzu o'qitiladi va butun sinf aynan bir xil material ustida ishlaydilar;

²⁹ А.Саъдиев. "Тарих ўқитиш методикаси". Т.1983.

³⁰ Н.Сайидахмедов. Янги педагогик технологиялар. Т. 2003, 27-бет.

O'qituvchi yil davomida o'quvchining bilimi, malakasi, ko'nikmalarini baholab boradi va yil oxirida sinfdan-sinfga ko'chirish haqida xulosa beradi.

Shu o'rinda savol tug'iladi, ana shu an'anaviy usul nima uchun bugungi kunda o'z samarasini bermay qo'ydi?

Aytish lozimki, an'anaviy dars usuli o'z yutuqlari bilan bir qatorda kamchiliklariga ham ega. Bu kamchiliklarni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

- usul bir qolipda tuzilgan bo'lib, dars soatlari ratsional tasdiqlanmagan;

- dars davomida o'quvchilarni bir-birlari bilan muloqotlari to'la yo'lga qo'yilmaydi;

- mustaqil fikrlash past darajada;

- o'qitishdan maqsadni o'quvchi belgilaydi, bolaning qiziqishi, qobiliyati to'liq hisobga olinmaydi;

- o'quvchining egallagan bilimi, malakasi, ko'nikmalari kattalar tomonidan baholanadi, o'z-o'zini yoki tengqo'rlarining baholashi yo'q.

Bu an'anaviy usul bilan o'quvchilarga zamon talablariga mos ta'lim bera olmaymiz.³¹ Darsga markaziy figura-o'qituvchi bo'lgan ta'lim jarayonida mukammal natijaga erishilmaydi. An'anaviy usul bilan davlat ta'lim standartlari darajasida bilim, ko'nikma, malakani shakllantirib bo'lmaydi. Shunga ko'ra, yangi metodologik texnologiyalar izlab topish va qo'llash kerak bo'lmaydi. Bu esa o'z navbatida noan'anaviy dars usulini taqozo etadi.

Boshqa fanlar qatori tarix fani mutaxassisleri oldida turgan eng muhim dolzarb vazifalardan biri bu tarixni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishdir. Tarixni o'qitishda pedagogik texnologiyaning bosh vazifalaridan biri davlat standartlarini har bir davrning o'z mavzusi haqida o'quvchilarni qanday bilim va malakalarga ega bo'lishini ishlab chiqishdan iboratdir.

³¹ Уша китобдан, 37 бет.

Pedagogik texnologiya nima uchun zarur? Pedagogik texnologiya bu o'qitishning yangi usuli va vositalaridan foydalanib dars o'tishdir. O'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, bilimga nisbatan ehtiyoj sezishga o'rgatish aynan shu pedagogik texnologiyada erishiladi. Dars jarayonida faqat o'qituvchi emas, o'quvchi ham birgalikda faol ishtirok etishi lozim. O'qituvchi boshqaruvchi ob'yekt bo'lsa o'quvchi boshqariluvchi sub'yekt bo'lish kerak. Shuning uchun ob'yekt tomonidan mo'ljallangan maqsad va vazifalarni to'g'ri anglab yetishi, unga erishishga harakat qilish lozim. Ya'ni, o'qituvchi o'qitishdan qat'iy o'rganishga bilim berishdan o'quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashlariga ko'maklashishlari zarur. Demak shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiyalarning maqsadi o'quvchida tashabbuskorlik mustaqilliq kuzatuvchanlikni, bilimlarni chuqur va puxta o'zlashtirishdan iborat. 9-10 sinflarda O'zbekiston tarixi kursida ham mana shunday noan'anaviy usullar – pedagogik texnologiyadan foydalanib o'qitiladi. Ma'lumki, hozirda ta'limga Axborot texnologiyalaridan ham foydalanish kirib kelmoqda. Axborot texnologiyasi bu dars davomida axborot vositalar texnologiyalardan to'liq foydalanadi. Sababi, bu yoshdagi o'quvchilarda to'liq axborot texnologiyalari ishlash ko'nikmalari shakllanib ulgurgan. Darslarda bunday texnologiyalarni hamma o'quvchilar bilan ishlash jarayonida qo'llash mumkin.³²

Yangi pedagogik texnologiya mukammal usullardan iborat. Bu sinf o'quvchilariga o'ta murakkab bo'lgan yozma, debat, keystadi, matbuot konferensiyasi kabi usullarni qo'llash yaxshi natija beradi.³³ Chunki bu yoshdagi o'quvchilar bularni to'liq qabul qila olmaydilar. Ularni yosh xususiyatlari, bilim saviyalarini xisobga olib, bunday usullardan foydalanish zarur.

³² И.Ф.Йўлдошев, С.А.Усмонов. Педагогик технология асослари. Т, 2004, 43-бет.

³³ Уша жойда, 45-бет.

Shu o'rinda bu yoshdagi psixologik xususiyatlariga to'xtalib o'tish lozim. Shu avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashni namunali yo'lga qo'yish uchun avvalo, ularni harakter xislatlarini qanchalik tarkib topganligini aniqlash lozimdir. 9-10 sinf (13-16 yosh) o'smirlik yoshida bo'ladi. Bu davrda bolalikda kattalik jarayoniga ko'chish sodir bo'ladi. "O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, nuqtai-nazar, prinsip, o'zligini anglash, baxolash va xokazolar shakllanadigan davr hisoblanadi. Bu yoshda psixologik jixatdan eng muhim xislat – voyaga yetish, kattalik xissining paydo bo'lishi aloxida ahamiyatga ega. Kattalik xissi aqliy faoliyatda qiziqishda, munosabatda, xulq-atvorning tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi". Demak biz, bu yoshdagi o'quvchini texnologik xususiyatlarini xisobga olib, asosan uni mustaqil fikrlashiga imkoniyat yaratib beramiz.

Shulardan kelib chiqqan xolda, men ushbu bitiruv malakaviy ishimda ya'ni «Z.M.Boburning "Boburnoma" asarida tarixiy voqealar va shaharlar, kent va qishloqlarning tasnifi» mavzusini o'quvchilarga o'rgatishda O'zbekistonda tarix fani mavzularini o'rganishda foydalanish mumkin deb o'ylayman,³⁴ hamda ushbu kursda qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi bir pedagogik texnologiya usullarini keltirmoqchiman. O'zbekiston tarixi darslarida "Savol javob-zakovat", "Test va texnik vositalardan foydalanish kabi usullardan foydalanib o'qitish mumkin. Yuqori sinf o'quvchilari uchun eng ko'p foydalanish mumkin bo'lgan vosita kinodir.

1.O'qituvchi hikoyasini emotsionalligini va ahloqiy ta'sirini kuchaytiradi. O'rganilayotgan materialni ahloqiy tarbiyaviy ta'sirini oshiradi.

2.O'quvchilarning tarixiy xodisalar mohiyatini tushunib olishlariga yordam beradi.

3.O'quvchi ongiga tez ta'sir qilib, to'g'ri xulosaga kelishni ta'minlaydi.

³⁴ Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартлари ва ўқув дастури. Т, 1999, 2-махсус сон.

O'qitish samarasini oshirishdagi yana bir yangi usullardan biri – bu dar jarayonida texnika vositalaridan foydalanishdir.³⁵ Texnika vositalari (radio, kino, nazorat vositalari) o'tgan asrni 40-50 yillarida darsga joriy etilgan. Bugungi kunga kelib ham o'qitishda uning ahamiyati oshib bormoqda. Chunki ular o'quvchilarni mustaqil bilim olishlari, ta'lim samaradorligini oshishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa televideniye, kino, lengafon, fil'mmoskop, kodoskoplardan foydalanishning o'z metodlari mavjud. Shundan darsda kinodan foydalanishda quyidagi metodlarga e'tibor berilishi kerak:

1.O'quvchi kinofil'mdan foydalanishdan avval uni o'zi albatta ko'rishi kerak.

2.Kinofil'm dars mazmuniga singib borishi, darsning asosiy maqsadiga muvofiq bo'lishi lozim.

3.Kino materiallarini namoyish qilishdan avval o'quvchilarga bir-ikki savol berish, keyin shu savol yuzasidan suhbat o'tkazish kerak.

4.Kino materialining hammasi ta'limning boshqa vositalari kitob, harita, rasm, o'quvchining xikoyasi bilan birga olib borish kerak.

5.Darsda foydalanilgan kinofil'm yuzasidan uyga vazifa berish kelgusi darsda uni so'rash lozim.

6.O'qituvchi o'z fani yuzasidan mavjud bo'lgan kino fil'mlar fondidan yaxshi bilishi, har bir fil'm haqida o'zining mustaqil fikrlariga ega bo'lishi lozim.³⁶

Demak, biz yuqori sinflarda kinodan foydalanishimiz mumkin. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar aynan mana shu yo'nalishga ya'ni kinoga yaxshi munosabat bildiradi.

Ma'lumki o'qitish tizimida test usuli ham joriy qilingan. Bu tizim o'quvchilarni o'z ustida ishlash malakalarini, fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi.

³⁵ А.Саъдиев. Тарих ўқитиш методикаси. Т, 1983, 70-бет.

³⁶ Уша китобда. 73-бет.

9-10 sinflarga bilim saviyalariga mos tarzda testlar tuziladi. Test usuli o'quvchilarni o'zlashtirishini aniqlashga, darsda ko'proq o'quvchini baholash, umumlashtirish darslaridan foydalaniladi. Testlar tushunarli va aniq bo'lishi kerak.

Bunday usullarning ahamiyati shundaki, o'quvchilar darsda mavzuning asosiy mazmunini ko'rish, eshitish va mushohada orqali anglaydilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yangi pedagogik texnologiyalarni darsda qo'llash dars samaradorligini oshiradi, hamda o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini yanada faollashtiradi.³⁷

Xulosa

Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni uz ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan «Boburnoma» asaridir. Bu asar mazmunining rang-barangligi, bir jahon materialni o'z ichiga olganligi, til va uslubining go'zalligi bilan XVIII, ayniqsa XIX asr sharqshunos olimlarining diqqatini o'ziga tortgan va uning turli qo'lyozma nusxalari izlana boshlagan va g'arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi.

Asarning asli nomi «Boburiya» bo'lsada, uni «Vokeanoma», «Tuvuki Boburiy», «Vokeoti Boburiy» deb atadilar, keyinchalik asar «Boburnoma» degan nom bilan mashhur bo'lib ketdi.

Bu asarning mavjud teksti 1857 yilda turkolog N.I.Ильминский tomonidan Qozonda tipografiya yo'li bilan o'zining to'rt betlik nodir prinsinlarini ko'rsatgan ruscha so'z boshisi bilan bosilgan. Asarni nashrga

³⁷ Ўзбекистон ахборотномаси. Т, 1996-2000 йиллар.

tayyorlash va dunyoga chiqarishda rus olimi N.I. Il'minskiyning zo'r faoliyat ko'rsatganini alohida qayd etish kerak.

Bitiruv – malakaviy ishi Z.M. Boburning “Boburnoma” asarining yaratilishi, asardagi XV asr oxiri, XVI asr boshlaridagi tarixiy voqealarni o'rganishga qaratilgandir. Shu nuqtai nazardan bitiruv – malakaviy ishining birinchi bobida “Boburnoma” asarining yaratilishi va uning O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor berilgan. “Boburnoma” asarida XV asrning oxiri, XVI asr boshlaridagi bir qancha tarixiy, siyosiy voqealar o'rganildi. Jumladan, Bobur Mirzoning Andijon taxtiga o'tirishi, Samarqand sari yurishlari, Bobur Mirzoning Jizzah Pishag'ar, Xo'jand, O'ratepa kabi shaharlarda bo'lgan voqealar yozma manba yordamida o'rganildi. Masalan, «Boburnoma»da Shayboniynonning Samarqandni egallashi tafsiloti quyidagicha: «Samarqand hukmdori Sultonali mirzoning onasi Zuhra begi og'a BJA- maslig'idin va beaqllig'idin maxfiy Shayboniynong'a kishi yiborur, bu mazmun bilakim, Shayboniynon ani olur bo'lsa, o'g'li Shayboniynong'a Samarqandni bergay. Otasining viloyatini olg'ondin so'ng Sultonali mirzog'a bergay...

Shayboniynon ushbu xotunning va'dasi bila kelib Bog'i Maydong'a tushti. Tush vaqtida Sultonali mirzo bek-bekotig'a, yigit-yalangiga, hech kimga xabar qilmay, hech kim bila kengashmay, bir necha yovug'idagi kichik-kirim bila chorraha darvozasidan Bog'i Maydong'a, Shayboniynon qoshig'a bordi... Bu bedavlat xotun chun noqisi aql edi, erga tegar havosi bila o'g'lining xonu monin barbod berdi... Samarqandni o'zbek olg'och, Keshdin Hisor sori mutavajjih bo'lduk. Muhammad Mazid tarxon boshliq Samarqand beklari ko'ch va ahlu ayollari bila bizning bila tebradilar» («Boburnoma»).

Bu paytda asosiy maksadi temuriylar saltanatira butunlay barham berish bo'lgan Shayboniynon Buxoro, Samarqand, Qarshi, G'uzor, Shoxruxiya shaharlarini egalladi. Bu shaharlardagi dasht uzbeklarining kirrin

va talonchiliklari maxalliy xalq ichida Shaybo-niyxonga karshi harakatlarning paydo bulishiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan Bobur 1501 yilda Samarqandni ikkinchi marta egalladi. Bobur Mirzoning Samarqandni egallaganligi va Samarqand viloyatini tasnifi haqida asarda quyidagicha ma'lumotlar berilgan:

Abdullatif mirzodin so'ngra Shoxrux mirzoning nabirasi Ibrohm Sulton mirzoning o'g'li Abdullo mirzokim, Ulurbek mirzoning kuyovi edi, taxtga o'lturdi. Bir yarim yil, ikki yilga yovuqra podshoxlik qildi. Andin so'ngra Sulton Abusaid mirzo oldi, hayotida ulur o'g'li Sulton Ahmad mirzoga berib edi. Sulton Abusaid mirzodin so'ng Sulton Ahmad mirzo podshoxlik qildi. Sulton Ahmad mirzoning favtidin so'ng Sulton Mahmud mirzo Samarqand taxtiga o'lturdi. Sulton Mahmud mirzodin so'ng Boysunqor mirzoni podshoh qildilar. Tarxonning g'avg'osida Boysunqor mirzoni tutub, inisi Sulton Ali mirzoni bir-ikki kun o'lturg'uzdilar. Yana Boysung'or mirzo oldi. Nechukkim, bu tarixida mazkur bo'ldi. Boysung'or mirzodin men oldim, mundin so'ngra vaqoyeda uzga kayfiyatlar ma'lum bo'lg'usidur.

Samarqand taxtiga o'lturg'och, Samarqand beklarini burung'udek rioyat va inoyat qildim. Bizing bila bo'lg'on beklarni ham faroxuri xollarira yarasha tarbiyat va shafqat qildim. Sulton Ahmad Tanbalning borasira rioyat ko'proq voqe bo'ldi. Ichki beklar chargasida edi, ulug' beklar chargasida rioyat qildim. Samarqandnikim, yetti oy muxosara qilib tashvishlar bila olduq avval kelganda cherik eliga o'lja-mo'ljadek nima tushub edi. Bir Samarqanddin o'zga jam'i viloyatlar manga kirib edi, yo Sulton Ali mirzoga bu kirgan viloyatlarni chopib bo'lmas edi. Muncha tolon va toroj tortg'on viloyatlardin nima olmoq xud nechuk muyassar bo'lg'ay.

Cherik elining ulchasi tugandi. Samarqandni olg'onda Samarqand andoq harob edikim, madad va tuxm va taqovira extiyoj bor edi. Chi joyi ulkim, kishi andin nima ola olg'ay. Bu jihatlardin cherik eli ko'p tanqislik torttilar. Biz ham elga nima yetko'ra olmaduk. Uylarini ham sog'indilar. Birar-ikkiror qochmoqqa yuz qo'ydilar. Avval kishikim qochti Xonquli Bayonquli edi, yana Ibroxim Bekchik edi. Mug'ullar tamom qochtilar. So'ngra Sulton Ahmad Tanbal ham qochti. Bu fitnaning taskini uchun Xoja qozini yibordukkim. Uzun Hasan Xojaga o'zini heyli muxlis va mu'taqid tutar edi. Uzun Hasanning ittifoqi bila qochqonlarning ba'zisiga sazo bergaylar, ba'zisini bizning qoshimizga yiborg'aylar.

Bu fitnalarni angiz kiluvchi, mundin qochib borronlarni yomonlikka tez qiluvchi xud Uzun Hasan haromnamak ekandur. Borchasi Sulton Ahmad Tanbal borron bila zoxir va oshkora yomonlik maqomida bo'ldilar. Samarqandni olmoq doiyasi bila necha yilkim bajid cherik tortar eduq Sulton Mahmudxondin agarchi mu'taddun bix madad va ko'mak bo'lmas edi, vale Samarqand fatxidin so'ng Andijonni tama' qilur edi. Bu fursattakim aksar cherik eli va mug'ullar tamom qochib Andijon, Axsiga bordilar. Uzun Hasan va Tanbal ul viloyatlarni Jahongir mirzoga tama' qildilar. Necha jihatdin mumkin emas edikim, alarg'a berilgay. Biri ulkim, agarchi xonga bu viloyatlarni va'da qililmaydur edi, vale xon tilab edi. Xon tilab turub, Jahongir mirzoga berilsa, xon bila tamom yakru bo'lmoq kerak edi. Yana bir bukim mundoq mahaldakim, el qochib ul viloyatka bordi, taxakkum tariyqi bila tama' qiladur, agar burunroq bu so'z orada bo'lsa edi, filjumla vajxi bor erdi, alarning taxakkumini kim tortar bulg'ay? Myg'ul va Andijon cheriki va ba'zi beklardin, ichqilardin ham Andijonga borib edilar. Mening bila Samarqandta bek va yigit, yaxshi va yamon mingga

yovuqcha kishi qolib edi. Alarning istid'osidek chun muyassar bo'lmadi, Qochib borron tavaxdumluk ellarni tamom tilab o'zlariga qo'shtilar. Tavahhumluk ellar xud mundoq va'jeni o'z ko'rkunchidin tengridin tilar edilar. Axsidin Andijon ustiga cherik tortidi yamonlik va yog'iylikni sarix va oshkora qildilar.

Bitiruv – malakaviy ishining ikkinchi bobida “Boburnoma” asarida berilgan shahar, viloyat va tumanlarning geografik joylashgan o'ri, ularning tasnifi, tarixiy shaxslarning nasl-nasabi, xulq-atvori taxlil qilingan. Jumladan, Farg'ona viloyati, Andijon, Axi, Isfara, Konibodom, O'sh, Koson, Xo'jand, Jizzah Pishag'ar, Samarqand, Kesh, Qarshi, G'uzor kabi bir qancha shahar va kentlar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Masalan, **Bobur Mirzo Shayboniixon**dan mag'lubiyatga uchrab, **Ilono'tdi darvozasidan o'tib, Jizzax shahriga kelganligi haqida ham muhim ma'lumotlar bor. “Boburnoma”da Jizzax shahri, shaharning xokimi, Jizzaxda yetishtirilgan shirin qovun va uzumlar haqida ma'lumot berilgan:**

Kech namozi digar Ilon o'tida tushub, ot o'lturub etini shishlab, kabob qilib, otni laxza tindurub otlanduk. Tongdin burunrok Haliliya kentiga kelib tushtuk. Haliliyadin Dizak kelildi, ul fursatta Dizakta Hofiz Muhammadbek do'ldoyning o'g'li Tohir do'ldoy edi. Semiz etlar va mayda etmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon. Andoq usrattin mundoq arzonliq va andoq baliyattin mundoq amonlikka kelduk:

Vahmu usrattin amone toptuq

Yangi jon toza jahone toptuq.

O'lum dag'dag'asi xotirdin raf' bo'lib, ochlik shiddati eldin daf' bo'ldi. Umrumizda muncha farog'at qilmaydur eduk. Muddatul-umr amonlig' va arzonlig' qadrini muncha bilmaydur eduk. Ishrat usrattin so'ng farog'at mashaqqattin keyin lazzatliroq va yaxshiroq ko'runur. To'rt-besh navbat ushmundoq shiddattin rohatg'a va mashaqqattin farog'atqa muntaqil

bo'lubtur. Avvalgi navbat bu edi. Mundoq dushman balosidin va ochlik ibtilosidin halos bo'lub, amonlig' roxatig'a va arzonlir farog'atig'a yetushtuk. Uch-to'rt kun Dizakta istiroxat qilduk.

Andin so'ng Uratepa sari azimat qilduk. Pashog'ar bir nima yo'ldin qaqqasroqtur, chun muddati anda bo'lub edim, o'tub borurda, borib ani sayr qildim. Pashog'arning qo'rg'onida otun kim, muddati madid mening onam xoning'a mulozamat qilur edi, bu navbat uloqsizliktin Samarqandga qolib edi, uchray tushti, ko'rushtum, so'rdum. Samarqanddin bu yerga yayov kelibtur. Mening onam xonimning singli Xub Nigorxonim olami foniyni vido' qilg'on ekandur. O'ratepada xoning'a va menga eshitturdilar. Mening otamning onasi ham Andijonda vafot qilg'on ekandur, ani ham munda eshitturdilar.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida ko'plab tarixiy shaxslar haqida ham ma'lumotlar berilgan:

Jumladan, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Ohiy, Muhammad Solih kabi o'nlab ijodkorlar, Xoja Abdullo Marvari, Qul Muhammad Udiy, Shayx Noyiy, Yusuf Ali, Mullo Yoraq Shohquli G'ijjakiy, Husayn Udiy, Behzod, Shoh Muzaffar kabi ko'plab san'atkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatlariga xolis baho beriladi.

"Boburnoma" asarida temuriy shahzoda Husayn Boyqaro, uning o'g'li Badiuzzamon va buyuk mutafakkir Alisher Navoiy haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Jumladan: Alisher Navoiy haqida asarda shunday deyiladi: «**Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytibturlar,— hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas**».

Bobur Mirzo otasi Umarshayx Mirzo, uning nasl-nasabi haqida quyidagicha ma'lumotlarni yozib qoldirgan:

Chun Umarshayx mirzo baland ximmatlik va ulug' doiyalik podshoh erdi. Hamisha mulkgirlik dardagasi bor erdi, necha navbat Samarqand ustiga cherik tortti, ba'zi maxal shikast topti, ba'zi maxal bemurod yondi. Necha navbat qoyin otasi Yunusxonnikim, Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon naslidindur, Chig'atoyxonning yurtida mug'ul ulusining xoni ul fursatta ul erdikim, mening ulur otam bo'lg'ay, istid'o qilib kelturdi. Har qatla kelturganda viloyatlar berur erdi. Chun Umarshayx mirzoning muddaosidek bo'lmas erdi, goxi Umarshayx mirzoning badmaoshliridin, goxi mug'ul ulusining muxolafatidin viloyatga tura olmay yana Mug'ulistonga chiqar erdi.

Bobur Mirzo onasi Qutlug' Nigorxonim va opasi Xonzodabegim haqida quyidagicha ma'lumotlar bergan:

Avlodi: uch ugul, besh. kiz mirzodin krlib edi. Bori urlonlaridin uluq men — Zaxiriddin Muhammad Bobur edim; mening onam Kutluk Nigorxonim edi. Yana bir urul Jaxrngir mirzo edi, mendin ikki yosh kichik edi, aning onasi murulning tuman beklaridin edi, Fotima Sulton otlik. Yana bir u rul Nosir mirzo edi, onasi andijonlik edi, runchachi edi, Umid otlik. Mendin to'rt yosh kichik edi.

Bori kizlaridin ulug' Xonzodabegim edi, mening bila bir tukdon erdi, mendin besh yosh ulur erdi. Men Samarqandni ikkin-chi navbat olgonda, bovujudkim, Shayboniixondek kishi birla Saripulda chitsib urushub, onchakim imkoni bor edi sa'y va ehti-moldin taksir kilmaduq nechukkim mahallida mazkur bulrusidur, shikayet topib kelib, besh oy kal'adorlik kildim, kal'adorlik zabti va istehkomi va sardorlikda taksir bo'lmadi.² Atrof va javonibdagi podshoxlar va beklardin hech nav' madad va muo-vanat bo'lmadi, ma'yus bulub solib chiqtim.

Ul fatarotta Xonzodabegim Muhammad Shayboniixoniga tushub edi, bir urul bulub erdi. Xurramshox otliq makbul urlon edi. Balx viloyatini anga

berib edi, otasi ulgandin bir-ikki yil su igra tengri raxmatiga bordi. Shox Ismoil uzbekni Marvda bosk^onda Xonzodabegim Marvda edi. Mening jixatimdin yaxshi kurub, andin uzattilar, Kunduzda kelib menga kotildilar. Mu-forakat imtidodi un yil bulub edi. Men va Muhammadiy ku-kaltosh ikov kelduq begim va begimning yovuridarilar tanimadi- lar. Bovujudkim, otimni ayttim ham, muddatin so'ngra tani-dilar.

Yana bir kiz Meefbonubegim erdi. Nosir mirzo bila bir tukgon erdi, mendin ikki yosh ulur erdi.

Boburnoma XV asr o'zbek badiiy nasrining yorqin namunasi sifatida sof badiiy lavhalar, jonli tasvirlar, an'anaviy lirik chekinishlarga boy. Nasriy matn ichida keltirilgan xalq maqol-matallari, iboralari, ibratli o'gitlar, she'riy parchalar uning badiiyligini yanada oshiradi, o'ziga xos joziba bag'ishlaydi.

Boburnoma XVI asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko'p tillari — ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, ital^yan, rus, hind, urdu va boshqa tillariga bir necha martalab tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o'nlab mamlakat olimlarining ilmiy tadqiqotlarida Boburnomaning insoniyat yaratgan o'lmas obidalar qatorida alohida o'rinda turishi ta'kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T., “Ma’naviyat”, 2008, 173-bet.
- 2.Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q”. T., “Sharq”, 1998.
- 3.Karimov I.A. “Vatan sajdagoh kabi muqaddas”. T., “O’zbekiston”, 1995, 176-bet.
- 4.Bobur Z.M. “Boburnoma”. T., “Yulduzcha”, 1989.
- 5.Norqulov N, Jo’rayev U. O’zbekiston tarixi. T., “Sharq”, 2002.
- 6.Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. T., “Yozuvchi”, 1995.
- 7.O’zbekiston SSR tarixi. I-tom. T., “Fan”, 1970.
- 8.Ahmedov B. “Tarixdan saboqlar”. T., “O’qituvchi”, 1994.
- 9.O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. T., “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2-jild, 2001.
- 10.Markaziy Osiyo tarixi: manbashunoslik va tarixnavislik izlanishlari. 2-ilmiy to’plam. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti. T., 2010.

Mundarija

Kirish.....	3-7
--------------------	------------

- a)mavzuning dolzarbligi;
- b)mavzuning tarixshunosligi:

I-Bob: I-Bob: Z.M.Boburning “Boburnoma” asarining yaratilishi va tarixiy voqealar bayoni

1.1.Z.M.Boburning “Boburnoma” asarining yaratilishi va uning O’rta Osiyo xalqlari tarixini o’rganishdagi ahamiyati.....	8-21
1.2.Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida XV asr oxiri, XVI asr boshlaridagi tarixiy voqealar bayoni.....	22-31

II-Bob: Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida geografik hududlar va tarixiy shaxslar tasnifi

2.1. Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida shahar, viloyat va tumanlarning geografik tasnifi.....	32-45
2.2.“Boburnoma”da tarixiy shaxslar tasnifi.....	46-51

III-Bob: “Z.M.Boburning “Boburnoma” asari O’rta Osiyo xalqlari tarixi va geografiyasini o’rganishda muhim manba” mavzusini darslarda o’quvchilarga o’rgatish

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish.....	52-58
---	-------

Xulosa.....	58-65
-------------	-------

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	66
---	----